جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

2024-yil
5-yanvar
№ 2 (2)

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

2024 YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASH YILI

FIKR TINIQ, G‘OYA ANIQ BO‘LSIN!



Dunyo geosiyosiy maydonida so‘nggi yillarda O‘zbekiston tez-tez tilga olinadigan bo‘ldi. Bu bejiz emas. 2017-yil 22-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan birinchi marta mamlakatimiz parlamenti — Oliy Majlisga Murojaatnoma taqdim etildi. O‘shanda davlatimiz rahbari avvallari xayolga keltirish mumkin bo‘lmagan ko‘plab yo‘nalish va tamoyillar qatori “Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi”, degan aniq maqsadni o‘rtaga qo‘ygan edi.

Jumladan, amalga oshirilishi lozim bo‘lgan islohotlar qatorida innovatsiya kelajak kafolati ekanini, jamiyat hayotida eng muhim loyihalarni amalga oshirishda o‘ziga xos lokomotiv rolini bajarishini, bu jarayonda iqtidorli yoshlar ishtirokini, ijodiy g‘oya va ishlanmalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash vazifasi e’tibor markazida bo‘lishini alohida ta’kidlagan edi.

Oradan olti yil o‘tdi. Tarixan olib qaraganda, bu ko‘z ochib yumgunchalik fursat. O‘nlab yillar davomida qotib qolgan tushunchalar va o‘zgarmas aqidalar fonida yangilanish qiyin kechadi, deyishadi. Niyat boshqa, amalga oshirish boshqa, deya belgilangan vazifalarga shubha bilan qarab, o‘lda-jo‘lda qolib ketishini gumon qilganlar ham bo‘ldi. Ammo, mana, shu olti yillik qisqa fursat barcha shubha-gumonlarni chippakka chiqardi. Avvallari nomi ham qayd etilmagan dunyo reytinglarida O‘zbekistonning turli jabhalardagi ko‘rsatkichlari salmoqli o‘rin oldi. Taqqoslasa, tahlil etsa arzigulik raqamlar, natijalar paydo bo‘ldi. Bularning barchasi ezgu g‘oya o‘z natijasini bera boshlaganini namoyon etdi. Tanlangan yo‘l to‘g‘riligini isbotladi.

Eng muhimi, xalq roziligi yo‘lida ko‘zlangan marralar yuksak. Yangi O‘zbekistonning Uchinchi Renessansi poydevorini yaratishdek yuksak maqsad aholining nufuzli qismini tashkil etadigan yoshlarni harakatga unday boshladi. Iqtisodiy-ijtimoiy sohalar bilan bir qatorda madaniy yuksalish muhimligiga e’tibor kuchaydi. Yangilikka intilish, yuksalish, rivojlanish, taraqqiyot, bunyodkorlik yoshlikning ajralmas qismi ekani o‘z isbotini topa boshladi.

O‘zbekiston – yoshlar mamlakati. Yoshlik beqiyos imkoniyatlarni yuzaga chiqardi. Sohalar gullab-yashnab, ishbilarmonlik muhiti paydo bo‘ldi, biznes rivoji yo‘lga qo‘yildi.

Davlatimiz rahbari yangi – 2024-yil munosabati bilan xalqimizga yo‘llagan tabrigida iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiiyalarni jalb etish, tadbirkorlik va xususiy mulk uchun keng imkoniyatlar yaratish, ilm-fan, innovatsiya, IT kabi sohalarni, “yashil” va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarurligini ta’kidladi. Yangi ish o‘rinlari tashkil etish, aholi daromadlarini oshirish, ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdorini ko‘paytirish, xotin-qizlar va nuroniylarni, yordamga muhtoj insonlarni qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy sohalar rivojini mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarish rivojlanishga muqobil ravishda o‘sadi. Inson qadrini ulug‘lash, aholi manfaatlarini ta’minlash, buning uchun kuchli iqtisodiyot barpo etish asosiy vazifa ekani aytib o‘tildi. Shu maqsadda 2024-yil mamlakatimizda “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”, deb e’lon qilindi.

Tabrikda tilga olingan sohalarga oid atamalarning aksariyati texnologik o‘zgarishlarga yuz tutgan dunyo taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda zamonga mos ekani e’tiborga olinadigan bo‘lsa, yil nomi har tomonlama puxta o‘ylab qo‘yilgani, jonajon O‘zbekistonimizning dunyo bilan hamqadam taraqqiyot yo‘lini aks ettiradi.

Tabrikda ta’kidlanganidek, ortda qolgan 2023-yil el-yurtimiz uchun qut-barakali va omadli keldi. Yurtimizda hukm surayotgan tinchlik-osoyishtalik, turli millat vakillari o‘rtasida do‘stlik va hamjihatlik ezgu g‘oyalarni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar eshigini ochadi. O‘tgan yili mamlakatimiz tarixida birinchi marta umumxalq referendumi asosida yangilangan Konstitutsiya qabul qilindi. Kelgusi taraqqiyotimizni belgilab beradigan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi amalga oshirila boshlandi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yangi tahrirdagi “Jadid” haftalik adabiy-ma’rifiy, ilmiy gazetaning chiqa boshlagani ham Siz aziz mushtariylarga yangi kunlar shukuhini baxsh etishiga ishonamiz.

Yangi yilingiz omadli kelsin!

Shoyim BO‘TAYEV

AKS SADO

O‘RINLI TAKLIF

Avvalo, “Jadid” gazetasining birinchi soni bilan respublikamizning barcha ziyolilarini chin yurakdan muborakbod etaman. O‘z davrida maktablar ochib, darslik va o‘quv qo‘llanmalar yozgan aka-uka Shokirjon hamda Sobirjon Rahimiydek jadidlarning davomchilari sifatida biz bu yangilikdan oilamiz bilan juda mamnun bo‘ldik. Gazetadagi barcha ma’lumotlar, maqolalar qiziqarli, albatta. Ayniqsa, adabiyotshunos B.Karimov tomonidan “Taklif” ruknida berilgan “Turon” jadid kutubxonasi bunyod etilsa...” maqolasi menga juda manzur bo‘ldi. Qirq yildan ortiq shu sohada xizmat qilgan kutubxonachi sifatida bu taklifni juda o‘rinli, deb bilaman.

Qolaversa, “Turon” kutubxonasida jadidchilikka oid noyob kitoblar jamlanishi, yo‘qolib borayotgan vaqtli matbuot nashrlari ko‘z qorachig‘idek asralishi mumkin. Ushbu jadid kutubxonasi tashkil bo‘lsa, nazarimda, bu ham tarixiy adolatni qayta tiklash yo‘lidagi bir dadil qadam bo‘ladi.

“Turon” jadid kutubxonasi chin ma’nodagi xalqaro ziyo maskaniga aylanishiga ishonaman.

Vazira SOBIROVA,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodim

BAYRAM BARCHAMIZNIKI

Yangi tashkil bo‘lgan “Jadid” gazetasining ilk sonidan joy olgan turli mavzudagi maqolalarni o‘qib, boy taassurot oldik. Jumladan, adabiyotshunos Olimjon Davlatovning “Bayram kimniki?” sarlavhali maqolasi muallifning asosli fikr-mulohazalari, ishonarli fakt va dalillari bilan gazetxonlarda katta qiziqish uyg‘otgani shubhasiz.

Yaqinda nishonlaganimiz – Yangi yil bayrami, uning tarixi, taqvim (kalendar)ning paydo bo‘lishi omillari, musulmon davlatlarida yangi yil bayrami nishonlanadigan sanalar, bugungi kunda eng mukammal sanaladigan grigorian taqvimi kabi ko‘pchilikni qiziqtiradigan mavzular ushbu maqolada batafsil sharhlangan.

Muallif Yangi yil bayramining ilmiy asoslarini bayon etarkan, mazkur bayram dunyoviy xarakterga egaligini, “...grigorian taqvimi dastlabki diniy mazmunidan ancha kengayib, vaqtni tizimlashtiruvchi va muvofiqlashtiruvchi umumjahoniy mexanizmga aylangan”ini ta’kidlaydiki, demak, bu bayram barchamiznikidir.

Gulchehra MANSUROVA

TALQIN

MA’RIFAT YO‘LI

“Buyuk ma’rifatparvar bobolarimiz tomonidan olg‘a surilgan g‘oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma’rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o‘rtasida bag‘rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan intilishlar hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat namunasidir”.

Ushbu purma’no va haqqoniy fikrlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yaqinda poytaxtimizda o‘tkazilgan “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida aytilgan. Davlatimiz rahbari bu borada ilgari surgan amaliy takliflardan biri yangi, 2024-yilning ilk kunidayoq ro‘yobga chiqqani – “Jadid” gazetasining dastlabki soni chop etilgani tahsinga sazovor.

(Davomi 2-sahifada) ›

YODNOMA

QATAG‘ON QILINGAN ADOLAT POSBONLARI



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti muhtaram Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mustabid tuzum davrida nohaq qatag‘on qilingan yurtdoshlarimizning hayoti va faoliyatini o‘rganish, ularning pok nomlarini tiklash, xotirasini abadiylashtirish borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Keyingi yillarda yuzlab ana shunday fuqarolar, jumladan, qanchadan-qancha jadid bobolarimiz O‘zbekiston Oliy sudi tomonidan oqlangani bu yo‘ldagi muhim amaliy qadam bo‘ldi.

Bugun inson qadrini ulug‘lash g‘oyasi davlatimiz va jamiyatimizning eng ezgu va oliy maqsadiga aylangan.

Bu maqsadga erishishning hal qiluvchi omillaridan biri esa, xalqimizning tarixiy xotirasini tiklash, millatimiz va mamlakatimiz saodati yo‘lida shahid ketgan ajdodlarimizning pokiza nomlarini abadiylashtirish, ularning xotirasiga hurmat bajo keltirishdir.

Davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev doimo marhumlar, ayniqsa, el-yurt manfaatlari yo‘lida jonini tikkanlar ruhiga ehtirom ko‘rsatish zarurligi haqida gapiradilar, bu borada muhim vazifalarni belgilab beradilar.

(Davomi 2-sahifada) ›

MOZIY — HAQIQAT TAROZISI

JADIDCHILIK NIMA?

Uni nega o‘rganish kerak?

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida “jadid”, “usuli jadid”, degan so‘z va iboralar qo‘llana boshladi. Keyinroq esa bu hodisa butun jamiyat hayotida o‘zgarishlar yasay boshlagach, “jadid”, “usuli jadid”, “ziyoli”, “taraqqiy” kabi so‘zlar ommalashib ketdi. Qrimning Bog‘chasaroy shahrida “Tarjumon” nomli gazeta chiqarib, Rossiya chor ma’murlarini tashvishga solib qo‘ygan tatar ziyolisi Ismoilbek G‘asprali “usuli jadid” tushunchasi va u bilan bog‘liq butun bir jarayonning asoschisi edi. Bu tushunchani Ismoilbekning o‘zi shunday ta’riflaydi: “...ota-bobo kunlarindan qolmish milliy maktablari isloh etmak usuli jadid demakdir, boshqa bir o‘quv, boshqa bir maktab demak dagildir”.

Amaliy jihatdan favqulodda ijobiy natijalar bergan bu usul asr boshida Turkistonning barcha shahar va qishloqlariga kirib borayotgan edi. Bu usul targ‘ibotchilari ana shu munosabat bilan “jadidlar” nomini oldi, ularning maktablar islohoti bilan boshlanib, asta-sekin jamiyatning madaniy-ma’naviy hayotini, keyinroq ijtimoiy-siyosiy sohalarini qamrab olgan harakati uchun esa “jadidchilik harakati”, davrni esa “jadidchilik davri”, deb atash ham XX asr 20-yillarda taomilga kirgan edi. Bu davrni o‘z vaqtida ayrim mutaxassislar “Turkistonning milliy uyg‘onish tarixi”, deya nomlab salmoqli tadqiqotlar ham yaratganlar.

(Davomi 3-sahifada) ›



QATAG‘ON QILINGAN ADOLAT POSBONLARI


Boshlanishi 1-sahifada

2023-yilning 31-avgust kuni poytaxtimizdagi “Shahidlar xotirasi” xiyobonida mas’ullar va jamoatchilik vakillari bilan bo‘lgan uchrashuvda ham Prezidentimiz qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha muhim tashabbuslarni ilgari surdilar, barchamizga ko‘rsatmalar berdilar.

Bizningcha, avvalo, bunday tashabbuslarning ahamiyatini chuqur tushunishimiz, qalbdan his qilishimiz zarur.

Sho‘rolar qatag‘oni davrida minglab begunohlar qatorida prokuratura tizimi vakillari ham ko‘plab musibatlarga duchor etildi. Or-nomusini har narsadan ustun qo‘yib, nohaqliklarga qarshi borgan, qat’iyat ko‘rsatgan, chin ma’noda dovyurak va vatanparvar mahalliy xodimlarning 150 nafari ustidan jinoyat ishi qo‘zg‘atilib, ulardan 30 nafari otib tashlangan. Qatag‘onga uchraganlarning aksariyati nafaqat sud-huquq tizimining fidoyi vakillari, balki el-yurt taqdiri uchun kuyungan, uning saodati yo‘lida borini berishga tayyor bo‘lgan millatimizning sadoqatli, salohiyatli, noyob iste’dodli farzandlari edi.

Jumladan, 1920-1924-yillarda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi adliya xalq noziri va Respublika prokurori bo‘lib ishlagan Abdurahim Yusufzoda taraqqiyparvar



Abdurahim Yusufzoda

“Yosh buxoroliklar”ning yetakchilaridan biri bo‘lgan. Uning tashabbusi bilan Buxoro shahrida uchta sud binosi barpo etilgan, sudlov organlarida birinchi bor apellyatsiya organi – “Taniz mahkamasi” (“Arz mahkamasi”) tashkil etilgan, sudyalarni olim, fozil, nasl-nasabli nomzodlardan saralab tayinlash yo‘lga qo‘yilgan, tarixiy-me’moriy obidalardan hibsxona sifatida foydalanish amaliyotiga barham berilib, ular qayta tiklanib, Buxoro madaniyat muzeyiga aylantirilgan. Aynan Abdurahim Yusufzodaning sa’y-harakatlari bilan 1924-yilda Moskvada rus va o‘zbek tilida “Buxarskaya jizn” nomli jurnal hamda O‘zbekistondagi ilk kinostudiya – “Buxoro-Rus kinojamiyati” tashkil etilgan.

Abdurahim Yusufzoda 1924 yilda Rossiya havo floti – “Dobrolyot” bilan shartnoma imzolab, Buxoro – Xiva – Toshkent – Olmaota yo‘nalishlarida havo qatnovi va pochtani yo‘lga qo‘ygan, “Yunkers” firmasidan 6 ta samolyot xarid qilinishiga erishgan. Afsuski, u 1936-yilda NKVD xodimlari tomonidan hibsga olinib, 1937-yilda otuvga hukm qilingan.

Qatag‘on yillarida nohaq ayblangan



Mirzo Qo‘qonboy Abduxoliqzoda

yana bir prokuror Mirzo Qo‘qonboy Abduxoliqzoda arab, fors, rus va turk tillarini mukammal bilgan. U 1916-yilda Jizzax qo‘zg‘oloni qatnashchilari ustidan sud jarayonida o‘ttizdan ziyod jizzaxliklarni o‘limdan saqlab qolgan.

O‘zbekiston Adliya xalq komissarligi huzuridagi prokuratura tergovchisi, Zarafshon okrug katta tergovchisi, Buxoro prokuraturasi tergovchisi lavozimlarida ishlagan Mirzo Qo‘qonboy Abduxoliqzodaning uyida jadidchilar Vadud Mahmud, Cho‘lpon, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma’rifatparvarlar tez-tez uchrashib turishgani, ularni el-yurt qayg‘usi birlashtirgani haqida ma’lumotlar bor.

Darvoqe, Mirzo Qo‘qonboy Abduxoliqzoda yetuk olim, ziyoli ham. U “Jizzax qo‘zg‘oloni”, “Namoz shaykasi”, “Tog‘ qizi”, “Istadjon”, “Qamchindan qon tomadi” kabi tarixiy voqealarga boy roman, qissa, hikoya va ocherklar yozgan. Rus tilidan biologiya, antropologiya, zoologiya, botanika darsliklarini o‘zbek va tojik tillariga tarjima qilgan.

Umuman, qatag‘onga uchragan o‘nlab xodimlar davlat va siyosat arbobi darajasiga yetgan edi. Bugungi kunda ular haqida taqvim yaratildi, har biri haqida alohida monografiya va hujjatli filmlar tayyorlanmoqda. Shuningdek, qatag‘onga uchragan xodimlarning oilasi va boshqa yaqin kishilari ro‘yxati tuzildi, 10 nafarining yashagan manzillari aniqlandi. Hozirda ko‘cha, mahalla va maktablarga qatag‘on qilinganlarning nomlarini berish hamda yodgorlik lavhalari o‘rnatish ishlari olib borilmoqda. Bosh prokuraturaning “O‘zbekiston prokuraturasi tarixi muzeyi”da alohida burchak tashkil etilib, qatag‘on qilingan prokuratura xodimlari haqidagi ma’lumotlar va tegishli tarixiy hujjatlar joylashtirildi.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 31-avgustdagi topshiriqlari ijrosini ta’minlash maqsadida maxsus Farmoyish qabul qildik. Farmoyish asosida qatag‘on qurboni bo‘lgan prokuratura xodimlarining nomlarini tiklash va xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”da belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha Bosh prokuror o‘rinbosari rahbarligida ishchi guruh tarkibi tasdiqlandi.

Bosh prokuratura tomonidan tayyorlangan va qatag‘onga uchragan xodimlarga bag‘ishlangan “Tarixiy xotira beqiyos” nomli kitobning birinchi jildi nashr etilgani Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi xodimlari bilan hamkorlikdagi ishlarning ilk natijalaridandir. Kitobga 1917 – 1940-yillarda faoliyat yuritgan va qatag‘onga uchragan 40 nafar xodim haqida ma’lumotlar kiritildi. Unda qatag‘on davrining qurboni bo‘lgan prokuratura xodimlarining hayoti va faoliyati tarixiy hujjatlar va boshqa dalillar vositasida ochib berilgan.

Nafaqat soha vakillari, balki keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan mazkur kitob el-yurt manfaatlari uchun jonini tikkan ajdodlarimiz ruhiga bugungi avlodning hurmat va ehtiromi ifodasidir. Qolaversa, yoshlarimiz ongiga Vatanga muhabbat, xalqqa sadoqat, halollik, odillik kabi tuyg‘ularni yanada chuqur singdirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi, degan umiddamiz.

Xulosa sifatida Prezidentimizning quyidagi so‘zlarini keltirish o‘rinlidir: “Xalqimiz asrlar davomida og‘ir sinovlarda, bosqinchi va yovuz kuchlarga qarshi mashaqqatli kurashlarda bukilmas iroda va jasorat namunasini amalda namoyon etib kelgan.

O‘z ozodligi, erkinligi yo‘lida kurashib, behisob qurbonlar bergan ota-bobolarimiz jasorati xotiramizdan hech qachon o‘chmaydi”.

Nig‘matilla YO‘LDOSHEV,
O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori

VATANPARVARLIKKA DA’VAT

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasida Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining “2023-yilda amalga oshirilgan chora-tadbirlar, shuningdek, 2024-yildagi asosiy vazifalari”ga bag‘ishlangan yillik hisobot yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Yig‘ilishda Jamoatchilik kengashi raisi 22-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida belgilangan vazifalar, xususan, milliy ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirish hamda jadidchilik harakati namoyandalarining fidoyiligi, ular ijodining bugungi kundagi ahamiyati to‘g‘risida to‘xtalib o‘tdi. Buyuk davlat arbobi va sarkarda Zahiriddin Muhammad Boburning ma’naviy merosi va harbiy jang san’atini keng jamoatchilik, ayniqsa, yoshlar ongiga chuqur singdirish, ular qalbida vatanparvarlik hamda iftixor tuyg‘ularini mustahkamlash masalalariga ham alohida e’tibor qaratildi.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan Jamoatchilik kengashi a’zolari B.Hasanov va H.Dadaboyevning fikr-mulohazalari, takliflari tinglandi. Mudofaa vazirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari X.Qarshiyev tomonidan vazirlik tizimidagi Oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlari va Temurbeklar maktabi o‘quvchilari o‘rtasida har yili jadidchilik tarixiga oid Respublika Olimpiadasi hamda vazirlik qo‘shinlari o‘rtasida tarixchi olimlar va taniqli ijodkorlar bilan hamkorlikda “Jadidlar – millat fidoyilari” mavzusida Mudofaa vaziri kubogi uchun uch bosqichli tanlov o‘tkazish taklifi o‘rtaga tashlandi. Shuningdek, “Qatag‘on qurbonlari” xotirasi davlat muzeyi hamda boshqa tarixchi olimlar bilan hamkorlikda Mudofaa vazirligining harbiy qism va Oliy harbiy ta’lim muassasalarida “Jadidlar qahramonligi” nomli tematik sinflar tashkil etish taklifi bildirildi.

Oqiljon ABDUBARNOYEV

MA’RIFAT YO‘LI

Boshlanishi 1-sahifada

Davlatimiz rahbarining tabrigidan keltirilgan iqtibosda jadidlarning “g‘oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma’rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar”ni olg‘a surgani alohida ta’kidlangani bejiz emas. Chunki ma’rifatparvar bobolarimizning faoliyati faqat adabiyot sohasi bilangina cheklanib qolmagan. Ular ijtimoiy sohaning ta’lim va ma’rifat, tarix va taraqqiyot, teatr va dramaturgiya, san’at va musiqa, falsafa va mantiq, milliy davlatchilik va huquq, tabiat va geografiya kabi jamiyatshunoslikning deyarli barcha yo‘nalishlarini rivojlantirish tarafdori bo‘lgan.

Binobarin, bugun jadidchilikning holati va istiqbollarini har tomonlama chuqur o‘rganishimiz lozim. O‘rganganda ham faqat adabiyotshunoslik emas, balki barcha fanlar doirasida jadidchilik fenomenining turfa qirralarini sinchiklab tahlil va talqin etish kerak bo‘ladi. Bu, o‘z navbatida, bir qator ilmiy-amaliy ishlarni bajarishni taqozo etadi.

Birinchidan, “Jadidchilik lug‘ati”ni tuzish kerak. Bo‘lajak lug‘atda ushbu voqelikka taalluqli barcha so‘z, atama va tushunchalar jamlanishi hamda ularning har biri aniq ilmiy-nazariy izohlanishi maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, tashkil etilajak Jadidchilik akademiyasi xalqaro maqomga ega bo‘lgani maqbul. O‘tgan asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakati nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasi, balki butun musulmon olami va turkiy dunyo tarixida chuqur iz qoldirganligi fakti ham aynan shunday yondashuvni talab etadi.

Uchinchidan, “Jadidchilik harakatining tarixiy solnomasi”ni tuzish zarur. Birgina hozirgi O‘zbekiston hududini oladigan bo‘lsak, o‘sha davrda Xiva va Qo‘qon xonliklari hamda Buxoro amirligi sarhadlarida bu harakat turli tarixiy shaxslar tomonidan har xil davrlarda va turlicha shakllarda tashkil etilganini ko‘ramiz. Ularning maqsad va intilishlarida ham muayyan farqli jihatlar mavjud bo‘lgan. Ana shu tarixiy haqiqatlarning barchasi tarixiy solnomada o‘z aksini topishi o‘rinli va foydali, deb hisoblaymiz.

To‘rtinchidan, “Jadidchilik qomusi”ni yaratish darkor. Albatta, qomusnoma tuzish tez bitadigan ish emas, balki izchillik va uzviylikni talab etadigan mas’uliyatli jarayon. O‘ylaymizki, avvalo, “Jadidchilik lug‘ati” va “Jadidchilik harakatining tarixiy solnomasi”ni tuzish ishlari bu borada muhim tayyorgarlik bosqichlari bo‘lib xizmat qiladi.



Akmal SAIDOV,
akademik

Beshinchidan, jadidchilik harakati namoyandalari asarlarining ko‘p jildligini nashr etish kerak. Bu to‘plam barcha ma’rifatparvar ajdodlarimizning asarlarini qamrab olishi shart. Bu borada g‘ayriilmiy qarashlarga allaqachon chek qo‘yish fursati yetgan!

Oltinchidan, barcha darajalardagi ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan darsliklarning mazmun-mohiyatiga jadidchilik g‘oyalarini singdirish lozim. Zero, jadidchilikni alohida fan sifatida o‘qitish o‘z yo‘liga, yurtimiz o‘quvchi va talabalari saboq oladigan turli fanlar bo‘yicha darsliklarning tegishli tarzda ushbu harakat namoyandalariga mansub ilg‘or fikrlar bilan boyitilishi yanada ta’sirchan va maqbul amaliyot bo‘ladi, degan fikrdamiz.

Yettinchidan, jadidlarning davlatchilik g‘oyalari va huquqiy qarashlarini bugungi tarixiy va siyosiy voqelik nuqtai nazaridan teran hamda xolis o‘rganishimiz davr talabidir. Zotan, Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, “...ushbu harakat namoyandalarining Markaziy Osiyo hududida milliy davlatchilik va mintaqaviy o‘ziga xoslikni, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga qo‘shgan ulkan hissasini konseptual va tizimli asosda atroflicha o‘rganish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda”.

Muxtasar aytganda, biz uchun jadidchilikning sinovdan o‘tgan amaliy tajribasi Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessansni bunyod etishning muhim ma’naviy-nazariy manbasi bo‘lib xizmat qiladi. Chunki jadidlarning g‘oya va dasturlari, davlatimiz rahbari e’tirof etganidek, Yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir.

EKOLOGIYA

TINIQ OSMON, YASHIL MAKON

Suv va havo inson hayoti va sog‘lig‘ini ta’minlaydigan eng zarur tabiiy omillar ekani ma’lum. Afsuski, bugun jahon ahli suv yetishmovchiligi hamda havoning ifloslanib borayotganidan tobora tashvishga tushmoqda. Ayniqsa, so‘nggi vaqtlarda poytaxtimiz havoning ifloslanishi bo‘yicha dunyoda yuqori o‘rinlarda turgani achinarli holdir.



Havoning ifloslanishi qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi haqida o‘ylashning o‘zi kishining aqlini shoshirib, o‘ylantirib qo‘yishi aniq. Keyingi uch kunda Toshkent shahri havosi sifati (AQI) haqida berilgan ma’lumotda haftaning seshanba, chorshanba kunlari shahar havosi zararli, deb baholandi. Kezi kelganda, havoda PM2.5 zarrasining ko‘paygani xavfli ekanini alohida qayd etish joiz. Xo‘sh, nima uchun aynan ushbu zarraga ko‘proq e’tibor qaratilyapti? Gap shundaki, yirik zarralardan farqli o‘laroq, bu kichik zarra biologik to‘siqlarni yengib o‘tib, organizmga joylashadi va inson salomatligiga xavf tug‘diradi.

Ma’lum bo‘lishicha, bu zarraning manbai asosan transport vositalari, sanoat korxonalari, qurilishlar, asfaltning eroziyaga uchrashi, avtopokrishka, tormoz kolodkalarini yuvish tufayli, shuningdek, aksariyat hollarda, qishloq xo‘jaligida amiakli o‘g‘itlardan foydalanish oqibatida yuzaga keladi. Bu zarraning xavflilik darajasi yuqoriligiga sabab shuki, inson kundalik nafas olish jarayonida xavf-xatarni sezmaydi, ya’ni zarralar organizmda muntazam to‘planib boradi. Xo‘sh, shunday ekan, biz yurtimizni va o‘zimizni bu ko‘rinmas xavfdan qanday asrashimiz mumkin? Nazarimizda, birinchi navbatda, pala-partish qurilishlarni tartibga solish zarur. Buning uchun har qanday qurilish jarayonini yashil makon yaratish bilan birga olib borish zarur. Ayniqsa, ko‘p qavatli uylar oldida, har bir yo‘lak oldida ko‘kalamzor maydonchalar yaratishga zudlik bilan kirishimiz lozim. Shuningdek, chiqindilarni belgilangan konteynerlarga tashlash va ularning usti yopiq bo‘lishini nazorat qilish shart. Kelajagimiz osmoni musaffo bo‘lishini, farzandlarimiz sog‘lom va barkamol o‘sishini istasak, har birimiz yurtimizni yashil makonga aylantirishga hissa qo‘shaylik.

Go‘zal XALILOVA,
o‘qituvchi

JADIDCHILIK NIMA?

Uni nega o‘rganish kerak?

Boshlanishi 1-sahifada

Shunday qilib, XIX asr oxirlarida va XX asr boshlarida Turkistonda “jadidchilik” yoki “milliy uyg‘onish davri” boshlandi. Professor Begali Qosimov bu davr xususiyatlarini o‘rganib, shunday xulosaga kelgan edi: “Turkistonni savodli va ma’rifatli, to‘q va farovon, ozod va obod vatanga aylantirish, birinchi navbatda, mustaqillikka erishish, mustamlakachilik iskanjasidan xalos bo‘lish jadidchilik harakatining asosiy maqsad-vazifasini tashkil qilar edi”.

XIX asrning oxirlari va XX asr boshlariga kelib jamiyatning eng ilg‘or fikrli qatlamlari kurashlarini aks ettirgan milliy uyg‘onish muayyan mafkura sifatida, birinchi navbatda, ma’rifatchilikda ko‘rindi. Ana shu mafkuraning jarchilari bo‘lgan jadidlar va majmualari tayyorlanib chop etildi.

Jadidlar maslagining amalga oshuvida maktablardan keyingi asosiy o‘rinni matbuot egallaydi. “1904-yilda rus-yapun urushi chiqib, bizning ham ko‘zimiz ochildi. 1905-yildagi Rusiyada boshlangan inqilob to‘lqini bizga ham zo‘r ta’sir qildi. Bizning tashkilotimiz (jadidlar – Sh.R.) siyosiy maslaklarga tushunib, birinchi navbatda qora xalqni oqartirmoq va ko‘zini ochmoq chorasiga kirishdi. Bu maqsadga erishmoq uchun gazeta chiqarmoqni munosib ko‘rib, uyushmaning harakati bilan o‘zbek tilida gazetalar chiqarildi”, deb yozgan edi Abdulla Avloniy.

Darhaqiqat, 1905-yil rus inqilobi va uning ta’sirida, keyinroq podshoh Nikolay II tomonidan 17-oktyabrda e’lon qilingan manifest Turkiston taraqqiyparvar ziyolilarida qo‘yish mumkin”, degan 1913-yil 23-mart 19940-son qaroriga ko‘ra, asar 1913-yil Samarqandda alohida kitob holida chop etiladi.



Shuhrat RIZAYEV,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, professor



“Padarkush”ning nashrdan chiqishi tom ma’noda o‘zbek milliy teatrining tug‘ilishini belgiladi. Shu yilning o‘zida-yoq Samarqandda Behbudiy, Toshkentda Munavvarqori va Abdulla Avloniy rahbarligida asarni sahnalashtirish harakatlari boshlanadi.

“Padarkush” ilk bor havaskorlar tomonidan 1914-yil 15-yanvar kuni Samarqandning Yangi shahar qismida namoyish etiladi va juda katta muvaffaqiyat qozonadi. “Padarkush”ning ilk muvaffaqiyati butun Turkistonga yoyiladi. Ketma-ket barcha yirik shaharlarda sahnalashtiriladi.

Teatrdan birlamchi maqsad yangi, g‘oyat ta’sirchan san’at turi bilan millatning ma’rifiy-madaniy saviyasini ko‘tarish, ilm va o‘qimoqqa da’vat etish bo‘lsa, ikkinchidan, ta’kidlaganimizdek, teatr-tomoshalar vositasida muayyan mablag‘ topib, “usuli savtiya” maktablari, boshqa xil o‘quv yurtlari, xayriya jamiyatlari, matbuot va boshqa madaniy ishlarga moddiy yordam ko‘rsatish edi.

“Turon” nomini olgan Toshkent teatr truppasi 1915-yildan boshlab tarjima asarlari qatori milliy dramaturgiyamizning yangi-yangi namunalarini muntazam sahnalashtirib boradi. 1915 – 1916-yillar davomida Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov”, Abdulla Avloniyning “Advokatlik osonmi?”, “Pinak”, Hoji Mu’inning “Mazluma xotun” pyesalari truppa repertuaridan joy oladi. Ta’kidlaganimizdek, shu yillari o‘z milliy rejissyorlarimiz ham yetisha boshlaydi. Nizomiddin Xo‘jayev, Abdulla Avloniy, Badriddin A’lamov kabilar bu sohaning ilk qaldirg‘ochlari bo‘ldi. Avloniy o‘z “Tarjimai holi”da “...bizning maqsadimiz zohirda teatru bo‘lsa ham botinda Turkiston yoshlarini siyosiy jihatdan birlashtiruv va inqilobga hozirlov edi”, deb aytgandi.

20-yillarning o‘rtalaridan jadidchilik ideologiyasi va namoyandalarini ma’naviy tazyiq qilish kuchaydi. Avval matbuotda munozaradek boshlangan jarayon rasmiy tus olib, siyosiy yorliq yopishtirish bilan yakunlandi. 1927-yilda jadidchilikka sovet ideologiyasiga qarshi aksilinqilobiy hodisa va harakat, deb rasman siyosiy baho berildi. Namoyandalari “ziyoli” emas, “ziyonli” deb qoralandi. 1929-yil o‘rtalaridan esa ularni jismoniy ta’qib etish boshlandi. Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo‘jayev, Salimxon Tillaxonov, Saidnosir Mirjalilov, Qayum Ramazon kabilar hibsga olinib, surgunga mahkum etildilar. Biror tasodif va ayrim sabablarga ko‘ra ta’qibdan omon qolganlari ma’naviy tazyiq va tahdidlar xavfida sovet ideologiyasini qabul qilib, shu pozisiyada faoliyat ko‘rsatmoqqa majbur bo‘ldilar. Ammo bu ham ko‘pga bormay, 1937-yilning umumittifoq qatag‘on kompaniyasida batamom barham topdi. Jadidchilik harakatining har qanday ko‘rinishi so‘nggi vakillari bilan birga butkul tugatildi.

esa keng miqyosli amaliy faoliyat bilan o‘z g‘oyalarining jamiyat hayotida qaror topishi, mustahkamlanishi va oxir-oqibat ular ko‘zlagan milliy ozodlik, siyosiy mustaqillik kurashlariga o‘sib o‘tishi uchun zamin yarata boshladilar. Bu butun Turkiston xalqining ijtimoiy-siyosiy tafakkuri taraqqiyotida yangi bir bosqich edi.

XX asr boshlariga kelib Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona vodiysi shaharlarida o‘nlab “usuli jadid” maktablari ochildi. Bu xayrli ishning tashabbuskorlari Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Siddiqiy-Ajziy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ashurali Zohiriy, Lutfulla Olimiy, Muhammadsharif So‘fizoda, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi atoqli zotlar edi.

“Usuli jadid” maktablarining ochila boshlashi ularni alifbo va boshqa o‘quv qo‘llanmalari bilan ham ta’minlash muammosini keltirib chiqardi. Samarqandlik ma’rifatparvar Hoji Mu’in yozadi: “1901-yildan e’tiboran Qo‘qon va Toshkentda, 1903-yildan Samarqandda yangi maktablar ochila boshladi. Bu maktablar Turkistonning katta shaharlarida son jihatidan (taqlidiy suratda) bir doroja ko‘paygan bo‘lsa ham, 4-5 yildan keyin yana kamayib, faqat ba’zi tuzuklari davom etdi. Buning bir sababi kitobsizlik bo‘lsa, boshqa sababi o‘qitguvchilarning usuli ta’limdan xabarsizliklari edi”. Bu vazifani ham yangi maktab tashabbuskorlari o‘z zimmalariga oldilar. Turkiston jadidlari birin-ketin “Ustodi avval” (Saidrasul Saidaziziy), “Adibi avval” (Munavvarqori Abdurashidxonov), “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim” (Abdulla Avloniy), “Tahsil ul-alifbo” (Abduvahob Ibodiy), “Rahbari avval”, “Tahzib us-sibyon” (Sadriddin Ayniy) kabi alifbo va darsliklar yozib, nashr qildirdilar. Nafaqat alifbo, ayni chog‘da hisob, jug‘rofiya, tarix, imlo qoidalari, islom dini tarixi, ona tili va adabiyoti kabi alohida predmetlar bo‘yicha ham Behbudiy, Fitrat, Ashurali Zohiriy, Hamza, Avloniy, Ayniy kabilarning maxsus darslik larining faoliyatlari kengayishiga biroz imkon berdi. Manifestdagi ayrim demokratik islohotlar, ya’ni shaxsning daxlsizligi, vijdon va so‘z erkinligidan foydalanib, milliy gazetalar chiqarishga rasmiy ruxsat olindi: shu zayilda jadidlarning “Taraqqiy”, “Xurshid” (1906), “Shuhrat”, “Tujjor” (1907), “Osiyo”, “Samarqand” (1913), “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona” (1914) gazetalari, “Oyina” (1913), “Al-isloh” (1915) kabi jurnallari dunyo yuzini ko‘rdi. Milliy matbuotimizning bu ilk namunalari turlicha taqdirga ega. Aksariyati bir necha sonlari chiqib ulgurmay, hurfikrliligi uchun yopib qo‘yildi.


Ming yillik an’anaviy yo‘sindagi adabiyot o‘rniga yangi, zamonaviy adabiyot, yangi adabiy tur va janrlar, hatto yangi adabiy til shakllana boshladi. Matbuot bilan birga turli sohalarni qamrab olgan publitsistika, adabiy tanqid paydo bo‘ldi. Badiiy ijodda “janroviy” inqilob sodir bo‘lib, barmoq vaznidagi ijtimoiy, ma’rifiy she’riyat, ro‘mon, hikoya, dramaturgiya maydonga keldi. Yangi adabiyotning Behbudiy, Siddiqiy-Ajziy, Abdulla Qodiriy, Hoji Mu’in, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda, Sidqiy Xondayliqiy, Fitrat, Sadriddin Ayniy, Tavallo, Nozimaxonim, Mirmulla va Mirmuhsin Shermuhamedovlar, So‘fizoda, Ibrohim Davron, Abdulla Badriy, Nusratulla Qudratulla-Milliy, Xurshid, Cho‘lpon kabi o‘nlab namoyandalari yetishib chiqdi.

XX asrning 10-yillari Turkiston madaniyati tarixiga yangi o‘zbek milliy teatrining ham vujudga kelish davri bo‘lib kirdi. 1911-yilda Mahmudxo‘ja Behbudiy “Padarkush yoxud o‘qumagan bolaning holi” nomli “3 parda 4 manzarali milliy, birinchi fojia”sini yozadi. Asarni chop qilish xususidagi urinishlar ikki yilgacha muvaffaqiyatsiz kechadi. Faqat pyesani 1812-yili rus-fransuz muhorabasining Borodino maydonidagi ruslar g‘alabasi bilan yakunlanishi 100 yilligiga bag‘ishlab, Tiflisdagi senzorga yuborilishi nashr uchun imkon beradi. “Matbuot ishlari Tiflis qo‘mitasi senzori ruxsati bilan Kavkaz o‘lkasi sahna-

ANJUMANDAN SO‘NG

Qadim Sharqda azaldan hukmdor qabulida hozir bo‘lmoqning ma’lum tartib-qoidalariga amal qilinganini bilamiz. Ya’ni huzuri muborakda beizn so‘z aytilmagan – so‘ralgandagina aniq, muxtasar javob qilingan; bunda har xil tama yoki ig‘vo alomatlari aralashsa, tegishli yo‘sinda jazoga mustahiq etilgan. Albatta, bandasi xom sut emib katta bo‘lganki, unaqa holatlar ham kam uchramagandir. Biroq biz hozir muddaomizdan yiroqligi bois, ul xususda so‘z yuritmoqdan tiyilamiz.

MENGA SO‘Z BERING!..



Erkin A’ZAM,
O‘zbekiston xalq yozuvchisi

Bugun boshqa zamon, rahbar bilan raiyat o‘rtasidagi muomala-munosabat xiyla erkin, demokratik, hatto do‘stona bir tus olgan. Bugun har kim majlis-marosimda so‘z olib, dilidagini emin-erkin bayon qilishi, zarur kelganda “katta”ning fikriga asosli e’tiroz bildirishi ham ayb sanalmaydi va buning uchun biron bir kishiga ziyon yetmas, goho esa ana shu dadilligi uchun rahbarning olqish-e’tiboriga sazovor bo‘lgusi.

Yashirmaylik, davlat boshlig‘i qatnashadigan katta yig‘inlar oldidan ko‘pincha ayrim ehtiyotkor xodimlar so‘zga chiqadigan kishiga “g‘oyaviy ishlov beradi” – nimani aytish keragu nimadan “qaytish” kerakligi xususida. Biz bu tartibni hoshakallo bekor qilish tarafdori emasmiz, rahbarlarning vaqti ziq bo‘ladi, mavzudan tashqari har xil luqmalaru behuda so‘zamollik bilan ularni band etish odobdan emas. Bir kun kelib so‘zlovchilarimiz ham, tinglovchilarimiz ham maxsus “muallim”larsiz gapning marom-me’yorini bilib olar, shunga muvofiq go‘ftugo‘ qilinar, lekin hozircha...

Yangi yil arafasida o‘tkazilgan ma’naviyatchi va ma’rifatchilarimizning katta yig‘inida biz bunga amin bo‘ldik. Kengash raisi hisoblangan Prezident Shavkat Mirziyoyev ma’ruzasini yakunlab, qatnashchilarga so‘z berarkan, boyagi “muallimchilik” tajribasidan xabardor ekanini aytdi, bugun shu tartibdan voz kechib, xohlagan odam so‘zga chiqishi, ko‘nglidagini baralla bayon qilishi mumkinligini ta’kidladi, anjuman ahlini ochiqlikka, dadillikka da’vat etdi.

Avvalo shuni aytaylikki, davlat rahbarining mufassal ma’ruzasida ma’naviy-ma’rifiy hayotimizning barcha muammolari tilga olindi hisob, har tomonlama tahlil qilindi, yechim va istiqbollari bir-bir ko‘rsatib berildi. “Jadid” atalmish yangicha gazeta, ulug‘ ajdodlarimiz nomida xalqaro mukofotlar ta’sis etish, noshirlarga soliq imtiyozlari, muzeylar, teatrlar ta’miri, maoshlar masalasi, degandek...

Bunday olganda, kun tartibidagi masalalar hal, izoh-izhorlarga hojat yo‘q edi. Qoida bo‘yicha esa, anjuman ahlining oldidan o‘tib, ularga-da so‘z bermoq lozim. Bu yog‘i, so‘z olgan muzakkirlar o‘rtaga qo‘yilgan vazifalar yuzasidan aniqlo‘nda fikr bildirsa kifoya. Qayoqda deysiz, bir-ikki notiqni istisno qilganda, hamma o‘z dardiga tushib ketdi. Dardi – yuksak nazarga ilinib qolish, “men ham borman, haliyam borman”, bahonada aravasini yurgizib olish, to‘ymas ilinj, oshkora tama... Bunga o‘xshash katta-kichik yig‘inlarda qatnashib ko‘rgan odam – shaxsan men xijolatlarga chulg‘anib o‘tirdim...

To‘g‘ri, ma’ruzada aks etgan masalalar bo‘yicha fikr bildirish, uni qo‘llab-quvvatlash va ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlik uchun minnatdorlik izhor etish, hatto uncha-muncha lutf qilish ham ayb emas, albatta. Ammo gapirgan gapimiz boshdan-adoq hamdu sanodan iborat bo‘lsa, boz ustiga unda riyokorlik manaman deb tursa, ishni yurishtirishga doir biror jonli fikr o‘rtaga tashlanmasa... Ma’naviyat va ma’rifatning chin homiysi sifatida bag‘rikenglik qilib, ko‘ngilda borini baralla so‘zlamoqqa qayta-qayta da’vat etib turganiga qaramay, esli-hushli mardum davlat rahbarining har daqiqa vaqti hisobli ekanini his etmog‘i darkor. Bunday choqda masala har qancha murakkab bo‘lmasin, aytilayotgan fikr imkon qadar qisqa va lo‘nda ifoda etilmog‘i lozim. Qarang, yon-veringizda o‘tirganlar ham sodda-anoyi emas, har biri o‘z sohasining bilimdoni, piri degulik! Ular qolib (balki turli andisha bilan), aynan siz so‘z so‘radingizmi, marhamat, el-ulusga manfaatli biror gap bilan o‘zingizni ko‘rsating, tahsin aytaylik!

Bunday chuchmallik, yumshoqsupurgilik yoshi kattalarimizga kechagi zamondan ilashib kelayotgan illat-da desangiz, bugungi yoshlar-chi?! Qatorlashib so‘zga chiqqan bir talay uka-singillarimizning o‘ktam va biyron xitoblariyu chiranishlarini (ha, shunday, boshqa ifoda yo‘q!) ko‘rib, ulug‘ shoirimizning pushaymonlikka to‘liq nadomatli satrlari yodga tushib ketadi:

Endi sen bobolar shavkatiga boq,
Aktyordek soxtakor shavqlarga
to‘lma.
Men hayot qo‘lida bo‘ldim o‘yinchoq,
Baxtsiz yashab o‘tdim,
sen baxtsiz bo‘lma.

Prezident nutqining avvalida besaranjom zamonda yashayotganimiz, bu ko‘hna dunyo hamon zo‘ru zar o‘rtasida talash ekani, ayniqsa, so‘nggi kunlarda og‘ziga kuchi yetmagan ayrim “vatanparvar” nusxalar o‘z yurtining holiga boqmay boshqa yurtlarga egalik da’vosi bilan chiqayotgani borasida fikr yuritib, shunday nozik va qaltis damlarda ziyolilarimiz birdam va mahkam turmoqlari zarurligini ta’kidladi.

Ajabki, minbarga chiqqan voizlarimizning birortasi ana shu muhimdan-muhim, hayot-mamot degulik masalani loaqal bir eslab qo‘ymadi. Bizningcha, kun tartibidagi eng dolzarb mavzu shu edi. Xo‘sh, o‘zing-chi, o‘zing nega mum tishlab o‘tirding deyishlari mumkin. Aybimiz bo‘yinda, har ma’no istiholalar girdobida biz ham majlisxonani to‘ldirgan ko‘pchilik qatori tomoshabin bo‘lib o‘tirganimiz rost. Bunga endi oqlov topib bo‘lmas!

Xo‘sh, shunday qilib, kaminangiz erkin minbar – minbar erkinligiga qarshimi? Zinhor-bazinhor, yo‘q! Nihoyati aytmoqchi bo‘lganim – katta minbarlar sari yo‘l olganda million-million qorako‘z eldoshlarimiz, kelajak bizga ko‘z tikib turganini unutmasak bas! Chinakam insoniy burch-mas’uliyat deganimiz ham, milliy g‘urur deganimiz ham ana shunda yuz ko‘rsatadi.

Ilmsiz millat, qavm asir va zaif qolur.
Ilmsiz davlatni foydasi yo‘q, ilmsiz dunyodorni hayoti yo‘q.


Mahmudxo‘ja BEHBUDIY

2024-yil 5-yanvar
№2(2)

UYG‘ONMOQ DUNYO BILAN BAROBAR YASHAMOQDIR

Jadidlar yoshlarni G‘arb va Sharqning taraqqiy qilgan mamlakatlariga o‘qishga yuborishga alohida ahamiyat berdilar. Avloniy tilga olgan toshkentlik taraqqiyparvarlar – “jadidlar to‘dasi” “jamiyati xayriya” ochadi. Jamiyatning 1909-yil 12-mayda tasdiqlangan 41 moddalik Nizomidan ma’lum bo‘lishicha, uning muassislari Toshhoji Tuyoqboyev, Nizomiddin Mulla Husainov, Mulla Abdulla Avlonov, Munavvarqori Abdurashidxonov, Bashirulla Asatillaxo‘jayevlar bo‘lib, viloyat hududidagi nochor, muhtoj musulmonlarning moddiy-ma’naviy ahvolini yaxshilash, jumladan yetimlar, keksalar, nogironlar uchun kasalxona, ambulatoriya, choyxona, oshxona, yotoqjoylar ochishdan tortib, yoshlarni maktabda o‘qitish, so‘ng oliy tahsil uchun chet ellarga yuborishgacha bo‘lgan masalalarni ko‘zda tutar edi.





Begali QOSIMOV,
O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi, professor

Umuman olganda, mamlakatimiz qop-qora zulmat qa’rida qolgan paytlari ham uning farzandlari orasida yorug‘likka yo‘l topib, oz-ko‘p bahra olganlari bo‘lgan. Yuqorida XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda minglab maktablar bo‘lganini ko‘rib o‘tdik. Gap bu davrda jahonning taraqqiyot yo‘lini belgilab turgan Ovrupo ilm-fani, zamonaviy oliy o‘quv muassasalari haqida ketadigan bo‘lsa, bu borada ham misollar yo‘q emas. Masalan, taqdir taqozosi bilan boshidan qanchadan-qancha mojarolarni o‘tkazgan va haj yo‘li bilan Jiddaga borib, rus konsuli yordami bilan 1894-1904-yillarda Moskvadagi Lazarev nomli Jonli sharq tillari institutining gimnaziyasidan oliy kursigacha o‘qigan Muqimiyning jiyani Ro‘zimuhammad Do‘smatovni olaylik. Bu dargohda asr boshlarida A.Y.Krimskiy, V.A.Gordlevskiy kabi mashhur olimlar dars bergan edilar. 1916-yili mardikorlik voqealarini yoritgani kelgan “Vaqt”ning muxbiri Shahid Muhammadyorov Samarqandning Bog‘i shamolidagi bir yig‘ilishda Ovrupo harbiy meditsina akademiyasini tugatib, bir necha yil askariy tabib bo‘lib ishlagan, 1914-yilgi urushdan oldinroq Bag‘dodga konsul qilib tayinlangan mahalliy xalq vakilini ko‘rib, hayratga tushgan va “tabiatning o‘yini”, deb baholagan edi. “Sadoyi Turkiston”ning muharriri, Turkiston muxtoriyatining harbiy noziri Ubaydulla Xo‘jayev (1880-1939) Saratov universitetining huquq fakultetini bitirgan edi. 10-yillarda yuqorida qayd etilgan “Jamiyati xayriya“ning yordami bilan bir guruh yoshlar Ufadagi “Oliya”, Orenburgdagi “Husayniya” madrasalarida o‘qiganlar. “Oliya”da o‘qiganlar orasida Mo‘minjon Muhammadjonov (1883 – 1964), Lutfulla Olimiy (1893 – 1963), Mirmuhsin Shermuhamedov (1895 – 1929), Abdulhay Tojiyev (1899 – 1938), Tohir Shokir (Tohir Chig‘atoy 1902 – 1984)lar bor edi.

1909-yilning martlarida Buxoroda “Shirkati Buxoroyi sharif” tuzildi. Maktab-madrasalar bilan tanishmoq uchun bir kishi Istanbulga, bir kishi Boqchasaroyga yuborildi. 1909-yil 18-iyulda Buxoro yoshlari “Tarbiyai atfol” nomli yashirin jamiyat tuzdilar. “Jamiyatning birinchi maqsadi Istanbulga o‘quvchilar yubormoq chorasiga kirishmoq edi. Masorif uchun jamiyatning sirini ochmasdan e’timod qildig‘i taraqqiyparvarlardan iona to‘plar edi, jamiyatning ijtihodi soyasida bir qancha talaba Istanbulga yuborildi”.

1909 – 1913-yillarda Abdurauf Fitrat (1886 – 1938), Usmonxo‘ja Po‘latxo‘ja o‘g‘li (1878 – 1968), Ato Xo‘ja (1894 – 1938), Mazhar Burxonov, Muqimbek Istanbulda o‘qidilar “Buxoro ta’mim maorif jamiyati” tuzdilar. Ayniy uning muassislaridan Muqimiddinbek (Muqimbek), Sodiq Ashur o‘g‘li va Abdulazizlarni sanab o‘tadi. Buxoroda tahsil ko‘rgan, keyinchalik Germaniyaga buxorolik talabalarni olib borgan tatar Olimjon Idrisiy ham ushbu jamiyatda ishlagan ekan. Ayniyning ma’lumot berishicha, Istanbuldagi buxorolik talabalar yildan-yil ko‘payib borgan. 1911-yilda 15 nafarga, 1912-yilda 30 taga yetgan.

Turkistondan ham Istanbulga o‘qishga borganlar bo‘lgan. Masalan, Hamza “Dorulvoizin”da, G‘ozi Yunus (1893 – 1938) dorulmuallimida o‘qiganlar.

Birinchi jahon urushi, mardikorlik harakati, hatto 1917-yil voqealaridan keyin ham bu g‘oya to‘xtab qolmadi. 1922-yilning yozida Turkiston Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi hay’ati rayosati va Buxoro hukumati qaroriga ko‘ra 60 dan ortiq o‘quvchi Germaniyaga o‘qishga yuboriladi. G‘oyaning boshida Fitrat, Munavvarqori, Fayzulla Xo‘jayev, Turor Risqulov turadilar. Bulardan hozircha Sattor Jabbor (1905 – 1938), Solih Muhammad (1902 – 1938), Saydalixo‘ja (1893 – 1973), Xayriniso Majidxonova (1905 – 1938), Maryam Sultonmurodova, Saida Sherahmad qizi, Birimjon Azim, Fuzayl Sherahmedov, Rauf Rasuliy, Vali Qayumxon, Ahmadjon Ibrohimov, Abdulvahob Is’hoqov (O‘ktoy), Ibrohim Yorqin, Afzal Abusaid, Sulton Matqul, Sobir Turkistonli, Ahmad Naim, Temur, Abdumajid Ibrohimov, Ahmad Shukriy, Tohir Chig‘atoy, Bahvaddin Amin, Bilol Fathullo, To‘lagan Mo‘min, Orifxon Ibrohim, Abdulla, Ahmad Shukuriy (Buxoro), Ruqiya Rahim qizi, Shamsulbarotxonim, Zahro Kashayeva, Gulsum Muzaffar, Ertoy nomlari ma’lum. Abdulvahob Murodiy ulardan sal oldinroq borgan edi.

1923-yilda Germaniyada turkistonliklardan 11, buxoroliklardan 51 talaba o‘qir edi.

Turkistonliklardan Berlin Humboldt universitetining tibbiyot fakultetida 1, Berlin Texnik akademiyasida 4, Qishloq xo‘jaligi akademiyasida 2 talaba o‘qir edi. Ikki o‘quvchi ko‘nchilik maktabida, 2 talaba gimnaziyasida edi. Buxoroliklardan Berlin Humboldt universitetining tib, falsafa, iqtisod, binokorlik, elektrotexnika, mashinasozlik, qishloq xo‘jaligi kabi ixtisosliklarida 7, Vitsinxauz oliy qishloq xo‘jaligi maktabida 4, Saksoniya Frayberg ko‘nchilik maktabida 2, Leypsig matbaachilik maktabida 2, Drezden muallimlar maktabida 1, gimnaziyasida 1, Bilefold dorulmualliminida 2, Braunshveyt dorixona ishlari maktabida 1 talaba o‘qigan. Berlin maktabgacha tarbiya qizlar o‘quv yurtida bir o‘quvchi, shuningdek, bolalardan 16 nafari Koslindagi (Pomen viloyati) 10 yillik davlat bilim tarbiya muassasasida, 4 nafari doktor Fakkelmanning xususiy o‘rta maktabida, bittasi Xermsdorf bolalar uyida ta’lim olgan. Har xil mashinasozlik zavodlarida 6 o‘quvchi o‘qish uchun tajriba va ko‘nikma orttirgan edilar.

Ko‘p o‘tmay, hammalari yo‘llarini topib ketdilar. Abdulvahob Murodiy, Birimjon Azim, Solih Muhammad Berlin Oliy qishloq xo‘jaligi akademiyasiga qabul qilindilar. Saydalixo‘ja Oliy texnika akademiyasining kimyo, Afzal – arxitektura, Ahmadjon Ibrohim – tog‘ muhandisi, Sultonbek, To‘lagan Mo‘min – muhandis-elektrik, Bilol mashinasozlik fakultetlarida o‘qiy boshladilar. Orifxon Ibrohim Bonn Oliy ziroat maktabining suv muhandisi, Sobir Dormshtat Oliy texnika maktabining mashinasozlik, Ahmad Shukriy Berlin Humboldt universitetining tarix-falsafa, Ahmad Naim, Shamsulbarotxonim esa tibbiyot fakultetlariga o‘qishga kirdilar.

Tohir Shokir (Tohir Chig‘atoy) Haydelberg universitetining iqtisod, Abdulvahob Is’hoq (O‘ktoy) shu universitetning meditsina fakulteti, Gulsum Muzaffar Berlin o‘qituvchilar instituti talabasi bo‘ldilar...

20-yillarning o‘rtalaridan Rusiyadagi ichki kurash sovetlar foydasiga o‘zgara boshlagach, bolsheviklar hukumati millatlarga berilgan hurriyatni tortib oldi. Shulardan biri yoshlarni chet mamlakatlarda o‘qitish edi. Xullas “chirik“, “reaksion” “burjua mafkurasining uyasi” – Olmoniyadan yoshlar shoshilinch chaqirib olina boshladi. Talabalarni zo‘r berib Rusiya shaharlaridagi universitetlarda o‘qishga targ‘ib qilish avj oldi. Chetda bitirib kelganlarga dastlab salohiyatiga yarasha ish berildi. Ta’tilga kelganlar qoldirildi. So‘ng esa ularga “Germaniya agenti”, “josus” singari tavqi la’natlar yopishtirilib, qatag‘on qilish boshlandi. Qaytib kelganlarning katta qismi yasama ayblar bilan otib tashlandi, qolgan oz qismi esa qamoq va surgunlarda nobud bo‘ldilar. Safdoshlarining vatandagi mash’um taqdiridan xabar topib, chetda qolib ketgan yoshlarimiz Germaniya, Turkiya shaharlarida o‘z iqtidorlariga muvofiq ilmiy-madaniy muassasalarda xizmat qildilar, professorlar bo‘lib



tanildilar (Tohir Chig‘atoy, Ibrohim Yorqin, Saydalixo‘ja, aka-uka Abdumajid va Ahmadjon Ibrohimlar, Abdulvahob Is’hoq-O‘ktoy, Vali Qayumxon kabi). Lekin, tabiiyki, vatanning hasratli yodi bilan umrlarini o‘tkazdilar.

Shu tariqa jadidlarning chor hukumati davrida yo‘lga qo‘yilgan va inqilobning dastlabki yillarida u qadar qarshilikka uchramagan xorijda milliy kadr tayyorlash dasturi 20-yillarning ikkinchi yarmida sho‘rolar hukumati tomonidan barbod qilindi. Aslida bu ishning muvaqqat ekanligini, o‘z universitetlarini ochmagunlaricha milliy kadr taqchilligi hal bo‘lmasligini ular bilar edilar. Lekin universitet tashkil qilish uchun avvalo moddiy sarvat zarur edi. Mutaxassis kerak edi. Nihoyat, hukumat qo‘llamagan taqdirda ham qarshilik ko‘rsatmasligi lozim edi. Afsuski, XX asr boshidagi Turkistonda bu uch omildan bittasi ham yo‘q edi. Yolg‘iz so‘ngsiz ishtiyoq, buyuk orzu bor edi. Universitet, avvalo, millatning ko‘kragini ko‘tarish, bir vaqtlar o‘z salohiyati bilan jahon sahnasida markaziy o‘rinlarni egallab kelgan, so‘nggi uch-to‘rt asrlik tanazzul va bo‘hronlar sababli surilib, asoratga tushgan Turkistonning ko‘zini ochish, jahonni va o‘zligini tanitish, bir so‘z bilan aytganda, dunyoga qo‘shish uchun lozim edi. Taraqqiyparvar ziyolilarimiz bu zarurat va ehtiyojni dil-dildan angladilar va uni umummillat g‘oyasi darajasiga ko‘tardilar. Bu g‘oya Rusiyaga tobe’ bo‘lgan xalqlarning ilk matbuot minbari “Tarjimon” (1883 – 1914)dan, “Oyina” (1913 – 15)gacha, dastlabki uyushmasi “Ittifoqi muslimin” (1905)dan “Turon” (1913 – 18)u “Sho‘royi islomiya” (1917)gacha aks etdi va takomillashib bordi.

“Ovrupo bir keksa choldir, tajribasi ko‘pdir, – deb yozgan edi Ismoilbek 1885-yilda. – Ulug‘ yoshiga hurmatimiz bor. Tajribasidan o‘rganamiz. Lekin xatolarini takrorlamaymiz. Maktablarini, universitetlarini bizlar ham quramiz. Ammo aqllarimizni qancha yoritsak, qalblarimizni ham shuncha “haqqoniyat” bilan to‘ldirmoqqa harakat qilamiz. Ovrupoda nimani ko‘rsak, yosh boladek olib yugurmaymiz. Esli-hushli insonlardek “Bu nimadir? Oqibati nima bo‘ladi. Vijdon va haqqoniyatga uyg‘unmi?” – deya aql tarozisiga tortib olamiz. Ovrupo madaniyati mulohazasiz qabul qilaverish mumkin bo‘lgan bir narsa bo‘lsa edi, bu madaniyatga Ovruponing o‘z vorisi dushman bo‘lmas edi”. “Fuqaroi islom sizlardan mol istamas, osh istamas. Din – Qur’ondan, jon – Xudodan”, deb yozadi u 1906-yilda Buxoro va Xiva xonlariga xitoban. “Siz, davlatlik xonlardan xalqqa ehson etiladigan narsa nashri maorifga, taraqqiyot va kamolotga omil bo‘luvchi oliy darajalik maorif maktablaridir. Ko‘hna madrasalar ko‘p Buxoroyi sharifda va Xivada endi biror dorulfununi islomiya ta’sis etmoq lozim. Bu dorulfununlarga bir daraja ilm olgan talaba qabul qilinib, tarix, jug‘rofiya, kimyo, handasa, ilmi huquq, usuli idorai davlat, ilmi iqtisod va boshqa lozim fanlar, turkiy, forsiy, rusiy va fransaviy tillar o‘rgatilsa, ushbu dorulfununlarda muallim va mudarrislik qila oladigan ahli kamol topiladi”. (“Tarjimon”, 1906, 89-son).

Behbudiyning “Oyina” jurnalida quyidagilarni o‘qiymiz: “Hozirgi zamon ahvolig‘a oshno kishilarg‘a va boshig‘a ish tushganlarg‘a, barcha tojir va mansabdorlarg‘a albatta ma’lumdurki, bizg‘a muvofiqi zamona odamlar kerak, ya’ni musulmon do‘qtur, musulmon muhandis (injener-pilonchi), musulmon zakunchi, tijoratxonalarda musulmon “agent” ishboshilar, podshohlik mahkamalarida musulmon ma’murlari, musulmon sudyalari, natarius (muqavolot muharriri), bonkalarda musulmon sarkorlari va... kerakdur”.

“Turon” jamiyatining 73 moddalik nizomida “ovrupocha o‘quv muassasalari ochish”, “o‘rta va oliy o‘quv yurtlarida o‘qiyotgan talabalarga stipendiyalar belgilash” ko‘zda tutilgan. Shunga yaqin maqsadni “Nashriyot” (1914) shirkati ham qayd etgan edi. Turkiston universiteti g‘oyasi va uning amaliyoti haqida gap ketganda muhim izohtalab nuqta bor. Gap shundaki, o‘tgan asr so‘ngidagi o‘lkada yuz bergan ijtimoiy-siyosiy qo‘zg‘olishlar tufayli chor hukumatining muayyan davrlarida ham o‘lkani har jihatdan tadqiq etish, boy tabiiy-iqtisodiy iqtidoridan zamonaviy asoslarda yanada samaraliroq foydalanish, ya’ni o‘zlashtirish maqsadini ko‘zda tutuvchi universitet g‘oyasi shakllanib kelar edi. Ayni paytda, bu jahon hamjamiyatida mahalliy xalqning ma’rifati yo‘lida qilingan ishdek taassurot qoldirmog‘i lozim edi. Shunday bir sharoitda yuz bergan 1917-yil voqealari millatning istiqlolga ishonchini qanchalik oshirgan bo‘lsa, universitet haqidagi orzulariga shuncha umid tug‘dirdi. Biroq sho‘rolarning riyokorligi, Turkiston muxtoriyatining fojiali taqdiri mustaqillik bilan bir qatorda universitet g‘oyasini ham xayolga aylantirdi. Shunga qaramay, jadidlarimiz istiqlol g‘oyasidan voz kechmaganliklari singari, millat avlodini ushbu yo‘lda tarbiyalashda buyuk vosita bo‘lgan zamonaviy oliy maktab fikridan ham voz kechmadilar. Imkon qadar uni amalga oshirish chorasini izladilar. 1918-yili yuzaga kelgan sharoitdan, ayrim rus liberal demokrat ziyolilarining xayrixohligidan unumli foydalandilar. 9-aprelda Munavvarqori Abdurashidxonovning hovlisida 9 kishilik tashkiliy hay’at ish boshladi. Bir oy davomida 9 yig‘ilish o‘tkazildi. Bo‘lajak universitetning tashkiliy tuzilishlaridan tortib, sho‘ba fakultetlari-yu eng muhim sohalarning dasturlarigacha ishlab chiqildi.

1918-yilning 21-aprelida Toshkentning Yangi shahar qismida A.V.Popov bosh Turkiston xalq universiteti ta’sis etilgan bo‘lsa, rosa 21 kundan keyin 12-mayda Eski shaharda Munavvarqori bosh bo‘lgan Turkiston Musulmon xalq dorulfununi talabalariga o‘z eshiklarini ochdi. 15-mayda nizomi qabul qilindi.

Dorulfunun uch (quyi, o‘rta, yuqori) bosqichli bo‘lib, 5 yillik dorulmualliminni ham ko‘zda tutar edi. Qisqa muddatda 23 maktab tashkil topdi, 299 muallim jalb etildi. Ulardan 22 kishi oliy diniy madrasalarni, 2 kishi Rusiya universitetlarini bitirgan edilar. O‘qituvchilar orasida 20 ga yaqin turli soha vakillari, shu jumladan, taniqli shoir va yozuvchi, darslik mualliflari bor edi. Chunonchi, Abdusami’qori Ziyoboyev, G‘ulom Zafariy, Mo‘minjon Muhammadjonov, Qayum Ramazon, Shokirjon Rahimiy, Sobirjon Rahimiy, Haydar Shavqiy, Majid Qodiriy, Abdulvahob Murodiy, Maryam Sultonova, Zaynab Shamsuddinova, Abdulla Rahimboyev, Shamsiddin Sharafiddinov (Xurshid), Sa’dulla Sharafiddinov, Ahmad Shukriy, Eshonxo‘ja Xoniy kabi nomlarni eslash kifoya.

Dorulmualliminda esa, Fitrat ona tili va adabiyotidan, Munavvarqori axloqdan, Abubakr Divayev etnografiya, Kamol Shamsi matematika, Burhon Habib siyosiy tarix, Ismoil Haqqi madaniyat tarixi fanlaridan dars berdilar.

Dorulfunun Samarqandda o‘z sho‘basini ochdi. Mashhur Mahmudxo‘ja Behbudiy – rais, taniqli adiblar Hoji Muin-Mehriy, Saidahmad Siddiqiy-Ajziy, A.Qurbiy, Sh.Muxtoriy a’zo bo‘ldilar.

Biroq rasmiylashtirishni kundalik siyosat darajasiga ko‘targan Sho‘ro hukumati musulmon dorulfununi faoliyatiga yo‘l bermadi. Besh yilga mo‘ljallangan dorulmuallimin 4 oylik kursga aylantirildi va o‘sha 1918-yilning sentabr o‘rtalaridayoq tugatildi. Rus tilini yetarli bilmagan mahalliy yoshlar oliy tahsildan mahrum bo‘lib qolaverdilar. Turkistonliklarning chetda o‘qishlariga 20-yillarning o‘rtalarigacha tishini tishiga qo‘yib chidagan Sho‘ro hukumati Turkistonda milliy universitet ishlashiga toqat qila olmadi. Shu sabab 1919-yildayoq Turkiston xalq universiteti (to‘g‘rirog‘i, rus universiteti) Davlat universitetiga aylantirildi.

1923-yili uning beshta fakultetida o‘qigan talabalarning milliy tarkibi quyidagicha edi:


Jami – 2453. Shundan: ruslar – 1575; Yevropa yahudiylari – 397; armanlar – 134; tatarlar – 81; o‘zbeklar – 50; qirg‘iz(qozoq)lar – 57; tojiklar – 11; Buxoro yahudiylari – 34; turkmanlar – 9; uyg‘urlar – 8; dunganlar – 1; litvaliklar – 11; latishlar – 18; estonlar – 4; polyaklar – 32; nemislar – 15; boshqirdlar – 17.

Bu jarayon, tabiiyki, anchagacha hech bir o‘zgarishsiz davom etdi. Va u o‘z davrida bolsheviklarning o‘zini ham befarq qoldirgan emas. Masalan, 1927-yil 19-martda O‘zKP (b) MK ning 5-Plenumida Akmal Ikromov shunday degan edi: “Ikki mingdan ortiqroq talabasi bo‘lgan O‘rta Osiyo universitetida o‘zbeklar bor-yo‘g‘i 80 ta va millati ozchilikni tashkil etuvchilardan esa atigi 64 ta ekan. Va u yana O‘rta Osiyo universiteti emish! Moskva oliy o‘quv yurtlarida o‘qiyotgan o‘zbek o‘quvchilarining soni Toshkentdagidan ko‘proqdir.

Shu tariqa, oliy ta’lim yo‘lidagi qizg‘in harakat qiyofasini biroz o‘zgartirib, to‘xtab qoldi. Universitet endi millatning asliy xususiyatlarini tiklash, ko‘ksini ko‘tarish emas, aksincha, uning xos jihatlarini izchil yo‘qotib borish, undan rus andozasi asosidagi sovet kishisi yasash ustaxonasiga aylantirildi.

MUALLIF HAQIDA:

Taniqli olim Begali Qosimov (1942-2004) o‘zbek mumtoz va yangi adabiyoti muammolari bo‘yicha tadqiqotlar yaratgan. U turkiy olamdagi uyg‘onish, adabiy aloqalararo bog‘liqlik masalalarini mufassal o‘rgandi va targ‘ib etdi. Turkiya Otaturk kultur markazi faxriy a’zosi, Turkiya Otaturk tadqiqotlar markazi muxbir-a’zosi sifatida faoliyat yuritdi. O‘ndan ortiq darslik va qo‘llanmalar, 10 nomda alohida asarlar, 200 ga yaqin ilmiy maqolalar muallifi. O‘zbekiston Milliy universiteti Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti kafedrasi asoschisi, birinchi mudiri.



BAHODIR YO‘LDOSHEV – ZAMONAVIY TEATR JADIDI

teatr, adabiyot, san’atkor shaxsi, san’at hamda ijod to‘g‘risida

Bahodir Yo‘ldoshevning ketishi yuz yillik tarixga ega sahna san’ati rejissurasi uchun juda katta yo‘qotish bo‘ldi. O‘zbek teatri tarixida maktab yarata olgan uch rejissyor bor — Mannon Uyg‘ur, Toshxo‘ja Xo‘jayev va Bahodir Yo‘ldoshev. Ular qo‘ygan spektakllarning har biri ovoza bo‘lar, xalq orziqib kutardi. Toshxo‘ja Xo‘jayev ijodi gullab turgan davrda ketqizildi, bu ko‘rgulik shogirdining ham chekiga tushdi. Vaholanki, u birgina “Kelinlar qo‘zg‘oloni” spektakli bilan o‘zbek teatri an’analarining yo‘lini ochib bergan edi. Bahodir Yo‘ldoshev davrida Milliy teatr boshqa teatrlar uchun o‘rnak oladigan laborotoriya edi. Bahodir davri tugaganidan keyin bu nufuz yo‘qoldi. Va bu inqiroz birinchi bo‘lib aktyorlar ijrosida ko‘zga tashlandi. Yuzaki ijroga o‘tib ketildi. “Falon aktyor paydo bo‘ldi”, degan gaplar yo‘qoldi. U hayotining so‘nggi yillarini o‘tkazgan “Diydor” teatr-studiyasida yo‘qolib borayotgan aktyorlik ijro texnikasi bilan shug‘ullandi, yoshlarga asar mohiyatiga qanday kirishni o‘rgatdi. Ishoning, aktyorlar bilan bu tarzda ishlaydigan boshqa rejissyor yo‘q! Afsus, Bahodirning o‘limi bilan bu ham tugadi. Yana qanchadir yillar kerak. Sharqu G‘arb adabiyotini tinimsiz o‘qiydigan Bahodir aktyorga falsafiy ozuqa bera olardi. O‘zining xayollari bilan osmonga chiqarardi, rejissyor bilan birga boshqa olamlarga o‘tar eding. Bahodir Yo‘ldoshev ancha ziddiyatli, o‘ziga xos murakkab shaxs bo‘lgan. Bu ruhiy ziddiyatlar, avvalo, shaxsning o‘zini burchakka tiqib qo‘yadi. Shu bois ham Milliy teatrdagi ziddiyatlar o‘z-o‘zidan bo‘lmagan. Biroq uni “Madaniyat va ma’rifat” telekanalidagi ko‘rsatuvda so‘nggi bor ko‘rganimda, o‘ziga pastdan qarab turgan Suqrot darajasidagi faylasufni ko‘rdim. Yuzidagi avvalgi asabiylikdan, tajangliklardan asar yo‘q edi. Hayotini kaftiga olib tomosha qilayotgan donishmand. Birovdan xafa bo‘lmay, alamsiz, yutuq va kamchiliklariga pastdan qarab ketdi.

Dilorom Karimova,
O‘zbekiston xalq artisti

San’at asarining miqyosi

Ilm, ijod, umuman, go‘zallikning poyoni yo‘q. Agar poyoni bo‘lganida faqat bitta odam “Hamlet”ni sahnalashtirardi. Boshqa rejissyorlar esa bu haqda bosh qotirmasdi. Lekin voqeasi hammaga ma’lum o‘sha yagona “Hamlet”ni yuzlab rejissyorlar yana boshqatdan yaratishadi. Har biri turli nuqtai nazardan yondashadi va o‘z Hamletini kashf etadi. Yoki Alisher Navoiy g‘azallaridagi bitta baytning bir necha xil sharhi bor. “Navoiyni tushunib bo‘ldim!” degan azamat bu dunyoda bormikan? Hazratning har bir g‘azali undan oldingi yozgan g‘azaliga javob bo‘lib keladi. Va keyingi g‘azali uchun savolligicha qoladi…

San’atkor hayoti

Men studiyadagi bolalardan samimiy bo‘lishni talab qilaman. Katta-katta ishlar qilib ham hayotdan tamasiz, iddaosiz o‘tgan zotlarga hurmat tuyg‘usini uyg‘otishga urinamiz. Bu bolalar kelajagi haqida oldindan “Ha, ular o‘zbek teatrining porloq ertasi, umidim cheksiz…”, deb aytolmayman. Ular – mening kemamga kelib-ketayotgan yo‘lovchilardan bir guruhi. Keladi-ketadi… Balki ketib to‘g‘ri qilar. O‘zi uchun afzalroq yo‘lni topar. Yo‘llar ko‘p. Lekin shaxsni Shaxs qiladigan yo‘llar boshi berk ko‘chalardir. Chiqib ketishing uchun tayyor yo‘l yo‘q bo‘lgan vaziyatdagina dunyo sen uchun o‘z sir-sinoatini ochadi. Va shunda o‘zingni anglay boshlaysan.

Bilasizmi, yumshoq o‘rin ruhni lanj, qalbni majruh qilib tashlaydi. Tushuntirib berolmayman, aktyorlar hayoti, umuman, ijod odamlarining yashash tarzi qiziq-da. O‘zining hayoti abgor, oilasi g‘urbatxona, xo‘rlangan, aldangan, shuncha g‘ami yetmaganday, yana Hamlet yo Dezdemonaning iztirobini o‘ylaydi. Bu g‘avg‘olarning senga nima hojati bor, deysiz.

O‘nqir-cho‘nqir bo‘lsa ham, baribir, san’atkor go‘zal hayot kechiradi. U shu hayotning o‘zidayoq ham Romeo, ham Otello, ham Richard, ham Sezar… Garchi fojiaviy bo‘lsa-da, bir qancha taqdirni yashab o‘tadi. O‘zining hayoti, baxtsizligi ular qismati oldida zarra bo‘lib ko‘rinadi. Oddiy odamlar esa faqat o‘z hayotini yashaydi.

Iste’dod va iste’dodsizlik

Iste’dodsizlar o‘z yo‘lini topib olaveradi, siz iste’dodni himoya qiling, asrang, degan fikrda katta hikmat bor. Chunki iste’dodning tugilgan mushti bo‘lmaydi, ko‘ngli juda bo‘sh bo‘ladi. Shu uchun iste’dodli odamlar hamisha boy berib kelishgan.

Go‘zallikning irodasi mo‘rt. Kurashuvchanlik – ezgulik uchun misoli bir begona o‘t. U bu dag‘allikni o‘z bag‘riga sig‘dirolmaydi. Iste’dod egasi odamlar bilan emas, asosan, o‘z xayoli, o‘zligi bilan band. Unga orzusidagi mukammallikka intilishiga xalal berishmasa bo‘ldi. Bu mukammallikni iste’dodsizlar o‘z darajasida – karyera, shon-shuhrat, obro‘-e’tibor va yana allambalo, deb tushunishadi.

Chin iste’dod esa faqat bitta manzilni ko‘zlaydi – YETUKLIK! Ya’ni shamollaru alangalarga qilt etmasdan, tik turish san’ati. O‘zingni topish yo‘lida esa qarama-qarshiliklar, to‘siqlar nihoyatda ko‘p. Atrofdagi odamlar, muhit bor kuchi bilan insonning inson bo‘lishiga xalal beradi. Nafs, hasad, nazari ochlik kabi qora tuyg‘ular o‘zingni anglashga yo‘l qo‘ymaydi. Qolaversa, ichichingdan yuksalishingga yolg‘iz o‘z kuching yetmaydi. Buning uchun, albatta, atrofingda seni tushunadigan, xayrixoh odamlar bo‘lishi darkor. Sharq mutafakkirlarida shunday fikr bor: “Iskandar zamoni bo‘lsa ham pirsiz yurma!”. Ya’ni odam bo‘laman desang, oldingda ma’naviy rahnamong bo‘lishi shart.

Iste’dodlilar haqida

Emishki, Suqrot “u yoqda Arastu bilan uchrashaman”, degan o‘yda o‘ziga olib kelingan zaharni paysalga solmay ichgan ekan. Ya’ni ajal – Suqrot uchun go‘yo Arastu eshigini ochib beruvchi bir yo‘l. Donishmand diydoriga yetishish oldida og‘u hech narsa emas! Ustozim Toshxo‘ja Xo‘jayev aytardilar: “Agar sen Alisher Navoiy, Shekspir kabi ijodkorlarga o‘tmish shoirlari yo moziydagi bir odam deb qarasang, ular chindanam, olisdagi bir afsona bo‘lib qolaveradi. Ularni zamondoshingdek qabul qil. Go‘yoki sen hozir shu zotlar bilan uchrashasan, gaplashasan…”. Shundagina ular bizni ham o‘ziniki qilib oladi.

Qo‘yayotgan spektaklimni shu siymolar ko‘rganda nima der ekan, deb xayoldan o‘tkazsang, ish umuman boshqacha tus oladi. O‘ylashimcha, shoirlar “agarda she’rimga Navoiyning ko‘zlari tushganda u kishi ne der edilar?”, deya istihola qilganida edi, qanchadan-qancha she’rlar, yostiqday-yostiqday kitoblar yozilmagan bo‘lardi. Lekin hayotda bunday prinsip bilan yashashni hammayam eplayvermaydi-da! Nima bo‘lgan taqdirdayam, Navoiylarni o‘zimizdan uzoqlashtirmasdan, yaqin do‘stdek qabul qilish, ular bilan suhbatlashish kerak. Chunki olam hali tugagani yo‘q. To‘rt-besh asr dunyo uchun hech narsa emas.

Ijodiy jarayon jozibasi

Rejissyor uchun spektakllar faqat repetitsiya davridagina yashaydi. Repetitsiya rejissyorning umriga umr qo‘shadi, muhokamalar esa umrni qirqadi. Garchi premyeralar ham repetitsiya hisoblansa-da, lekin biz uchun bu asarning o‘lgani. Shuning uchun ham bir vaqtlar odamlar Meyerxoldning repetisiyalariga pul to‘lab kirishgan. Chunki jarayon qiziq.

Asl san’at egalari

San’at aslida xoslarniki, u hech qachon ommaniki bo‘lmagan. Asl teatr tarbiya ko‘rgan, o‘qimishli, san’atni tushunib qadrlaydiganlar uchun muhimroq. Teatr tarbiyalaydi, deyishadi, bu – yolg‘on! Teatr tarbiyalamaydi. Hech qachon kitob o‘qimagan, muzeyga bormagan odamlarni zo‘rlab teatrga olib kelib bo‘lmaydi. Ular san’atning qadriga yetishmaydi. Chunki uning mohiyatini tushunmaydi. Shuning uchun ham Leninning “san’at xalqnikidir”, degan shiornamo gapi haqiqatdan mutlaq uzoq. Afkor ommaga san’at emas, birinchi o‘rinda non kerak. Ularga san’atning soyasi ham kifoya.

Haqiqiy baho

Voqeasi hammaga ma’lum, o‘ta jo‘n seriallardayam tomoshabin yig‘laydi. Har bitta odamning yig‘isi burnining uchida bo‘ladi. Agar ovozni baland ko‘tarib “Onajon, nega bizni tashlab ketdingiz!” deb baqirsayam, yig‘laydigan odam yig‘layveradi. Chunki har kimning yuragida o‘zining “Ona!” degan muqaddas so‘zi bor. Qolaversa, yig‘i bilan yig‘ining, kulgi bilan kulgining farqi katta. Tomoshabin qarsaklari, olqishlaru ko‘zyoshlari spektaklning haqiqiy bahosini belgilay olmaydi. Asarning bahosini faqatgina san’atkorning o‘zi beradi. Shuning uchun Pushkin aytadiki, “Faqat bitta hakam bor, u – mening o‘zim!”. San’atkorning o‘zigina o‘ziga hakam bo‘la olishi mumkin. Jurnalistlar, san’atshunoslar uni qanchalar ko‘kka ko‘tarib maqtashmasin, baribir, uning ko‘ngli to‘lmaydi. O‘rtamiyona spektakl sahnalashtirsa, hechqursa yotishdan oldin “Baribir, yomon spektakl qo‘ydim” degan o‘y, albatta, xayolidan o‘tadi.

Yana kimlar qarsak chalishi mumkin? Nima ko‘p, o‘zbekning qarindosh-urug‘i-yu oshna-og‘aynisi ko‘p. Zalning yarmidan ko‘pini to‘ldirib turgan shular qarsak chaladi-da! Yaxshi ijodkor, albatta, yaxshi inson bo‘lishi kerakmi?!

Bu – qonun emas. Ko‘pchilikning tasavvurida o‘rnashib qolganki, bu yozuvchimi, demak, u yaxshi odam bo‘lishi kerak. Lekin bu qarash har doim ham o‘zini oqlayvermaydi. Yaqin o‘tmishga nazar tashlaylik. Ijodkor shaxsiyatining nihoyatda murakkab ekanligini, ular ham hamma qatori ojiz kimsaligini o‘ttizinchi yillar davri yaqqol isbotlaydi. Shekspir Yagoni yozishi uchun uning o‘zida Yago bo‘lishi kerak. Shundagina u yagolar ruhiyatini teranroq his etadi, ochib beradi. Xasislik borasida hammani ortda qoldiradigan Qori ishkambaning muallifi Ayniy haqidagi gaplar ham bejiz emas. Ular o‘zining illatlari ustidan kulib yozsalar, fojialaridan yig‘lab yozadilar.

Muhabbat va nikoh

Jahon adabiyotiga nazar tashlasangiz, Romeo va Julyetta, Tohir va Zuhro, Layli va Majnunlar muhabbatining hech qaysisi nikoh bilan yakunlanmaydi. Biz hamisha nikohni muhabbatning eng yuksak ko‘rinishi deb aytamiz. Aslidayam shundaymikin? Visol muhabbat uchun to‘ydan keyingi janoza emasmikin?!

Muhabbat – juda og‘ir tuyg‘u. Buning mas’uliyatini yelkaga olish nihoyatda qiyin. Insonga Ollohdan rassomlik, yozuvchilik, qo‘shiqchilik iste’dodi berilganidek, sevish iste’dodi ham beriladi. Seva bilish ham qobiliyat. Shuning uchun bu tuyg‘u hammaga ham berilavermaydi. Insoniyatni davom ettirish uchun tabiatan erkak va ayolga qandaydir tuyg‘u berilgan, lekin bu muhabbat emas. Haqiqiy muhabbatlar nasl qoldirishni emas, komillikni o‘ylaydi. Julyetta bilan Romeo ikki soat ichida qarib ketadilar. Muhabbat odamni ulg‘aytirib, kamolga yetkazadi, ammo nihoyatda tez qaritadi. Chunki dunyoda boshqa qiladigan ish qolmaydi. Hamma ma’noyu sir-asrorlarning tagiga yetib bo‘lishadi. Bir-birini kuchli sevgan insonlar bu zaminda birgalikda baxtli hayot kechirishlari qiyin. Bunga atrofdagi tashqi kuchlar, Yagolar xalaqit beradi.

Yosh san’atkorlarga…

Men bolalarning ko‘proq kitob bilan do‘st tutinishlarini xohlar edim. Bilimsiz hech narsa qilib bo‘lmaydi. “Qur’on”ni uqish uchun ham katta ilm kerak. Agar kitob javoningizda “Qur’oni Karim” tursa-yu, o‘qilmasa, bu muqaddas kitobni uvol qilgan bo‘lasiz! Hadisi sharifdayam aytilgan-ku, “Beshikdan to qabrgacha ilm izla!” deb.

Har yili imkon qadar Shekspirni qayta-qayta o‘qib chiqishni xohlayman. Alisher Navoiyni har kun o‘qish kerak, deb bilaman. Hech bo‘lmaganda bir g‘azalini mutolaa qilib mag‘zini chaqish shart. Bitta romanni o‘qigandek bo‘lasan.

O‘zi dunyoda o‘n oltita syujet bor. Navoiy va Shekspir bularning barisida qalam tebratgan. Ulardan keyingi ijodkorlarning asarlarida mana shu syujetlar aylanib yuradi.

Uchinchi ko‘z

Insoniyat hech qachon o‘zgarmaydi! Hazrat Navoiy va Shekspirlarning klassikligi shundaki, ular o‘z asarlarida odamdagi barcha hissiyotlarning hamisha yashashini isbotlaganlar. Yagoning qilmishi – hech qachon o‘lmaydigan qilmish. “Otello” tragediyasida qahramonlarning bari o‘ladi, faqat Yagogina “Men yaralandim!” deydi. “O‘ldim!” demaydi. Shekspir uni “tirik qoldiradi”.

Yomonlikni, yovuzlikni, fitnani faqatgina yaralash mumkin, xolos. Uni o‘ldirib bo‘lmaydi. Odamzod qanday bo‘lsa, o‘shandayligicha qoladi. Hayotdagi biror-bir johillik yangidan o‘ylab topilgan johillik emas. Jaholatning yangisi yo‘q. Har bir yozuvchi esa o‘zi bilganicha dunyoning bir eshigini ochadi-da, o‘sha yerdan turib, “Hey odamlar, sizlar insonsizlar!” deb ularga inson ekanliklarini eslatadi. Hayot haqiqatlariga nigoh tashlashga undaydi. Rejissyor esa uni o‘zining dunyoqarashidan kelib chiqib talqin qiladi.


Hazrat Navoiy ta’biri bilan aytganda, basirat ko‘zini ochmoq kerak. Bu – insondagi ichki qudratni aks ettiruvchi peshonadagi uchinchi ko‘z. Aslida, hindlarning peshonasidagi xol ham uchinchi ko‘zni aks ettirish ma’nosida qo‘yiladi. Bunday ko‘zga ega insonlar qush tilini tushunadi, mo‘jizalar yaratadi. Butun olamni, tabiatni idrok etadi. Jahonning joni ular ko‘ksida gupirib, olam bilan birlashadi.

Aslida, bizning barcha urinishlarimiz, nigohimiz mana shu uchinchi ko‘zni ochishga qaratilgan.

Iqbol QO‘SHSHAYEVA
tayyorladi


Tiyotr har bir millatning yamon urf va odatlarini yo‘q qilmak uchun, o‘zini ahvolini tuzatmak uchun boqadurg‘on oyinasidir.

Abdulla Avloniy



IZHOR

YANGI O‘ZBEKISTONNING YANGI GAZETASIGA QUTLOV




Qardosh O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida yuz bergan har bir muhim o‘zgarish bizlar uchun hamisha huzurbaxsh va quvonarlidir.

Boku shahrining markaziy ko‘chalarida va prospektlarida “g‘izillab” uchayotgan O‘zbekiston avtomobillaridan, Ozarbayjon shaharlarining do‘konlariyu, supermarketlarini to‘ldirgan O‘zbekiston nozu ne’matlaridan qanchalar faxrlansak, shu kunlarda yangi “Jadid” gazetasining chop etila boshlaganidan ham shunchalar xursand bo‘ldik. XX asrdagi Turkiston ijtimoiy-gumanitar tafakkurining porloq yulduzlari Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Isoqxon Ibrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Siddiqiy Ajziy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Tavallo va o‘nlab boshqa ilm-fan fidoyilari jonajon Vatanining xuddi bugungiday Ozod, Mustaqil, Farovon, jahon hamjamiyatida o‘ziga xos o‘rniga ega obro‘li mamlakat bo‘lishini orzu qilgan edilar. Turkiston jadidlarining Ozarbayjondagi ma’naviy qavm-qarindoshlari Jalil Mamadqulizoda, Mirza Aliakbar Sobir, Abdurahimbek Haqberdiyev, Nasafbek Vazirov, Uzeyirbek Hosilbekov, Husayin Jovid, Muhammad Hodiy, Alibek Husayinzoda, Ahmad Og‘ao‘g‘li va boshqalar Ozarbayjonda xuddi Turkiston jadidlariday, ular bilan hamkorlikda o‘z yurtdoshlarini milliy-ma’naviy uyg‘onishga, ona-Vatan taqdirini o‘zgartishga chorlagan edilar.

XXI asr O‘zbekistonida jadid bobolarimizning ezgu orzu va umid-lari ro‘yobga chiqqan, deb bemalol aytish mumkin. Ishonchimiz komilki, “Jadid” gazetasi nafaqat qardosh o‘zbek madaniyatida, ayni paytda, turk xalqlari adabiy-madaniy hayotida ham o‘chmas iz qoldiradi. Yuksak taraqqiyot yo‘lida dadil odimlayotgan O‘zbekistonning jahonshumul dovrug‘ini yaqin-uzoq mamlakatlarga yetkazishda “Jadid” gazetasi ham kamarbasta bo‘lishiga chin qalbdan ishonamiz. Hurmat-ehtirom bilan,

Nizomiddin SHAMSIZODA,
Ozarbayjon Respublikasi Davlat mukofoti sohibi, Xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, professor,
Yashar QOSIM,
Ozarbayjon Milliy ilmlar akademiyasi, Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot instituti bosh ilmiy xodimi, filologiya fanlari doktori

SENI KECHMISHINGGA BOG‘LAR HAR ZAMON



Baxtiyor VAHOBZODA

Vijdon

Ikki yo‘lning o‘rtasida turgancha,
Goh u yondan, goh bu yondan qo‘rqaman.
Devdan emas, pashshachalik kuchi bor,
O‘zini dev sanagandan qo‘rqaman.

Ul dargohda Haq devoni qurilgay,
Ne topgansan, bari bir-bir so‘rilgay;
Iddaosi bo‘ynimizga yuk ilgan –
Avf etilgan sharaf-shondan qo‘rqaman.

Bu dunyodan bir umidim mezondir,
Men qo‘rqqan kas u mezonni buzgandir,
To‘q kimsaning quturishi yomondir,
Ochdan emas, men to‘ygandan qo‘rqaman.

Kim hamkordir nafs degan shaytonga,
U tupurar haqiqatu vijdonga;
Axir, vijdon qimmat bergay insonga –
Vijdonidan qo‘rqmagandan qo‘rqaman.

Alvido

Do‘stlarim, umrimning safosi bitdi,
Toqqa ketdim, dala-tuzga alvido.
Ko‘zga tuman cho‘kdi, boshga qor yog‘di,
Bahorga alvido, yozga alvido.

Sen ishqni har zamon muqaddas deding,
Kunlarga yopishmoq puch havas deding,
Ko‘pni istamading, ozga bas deding,
Derman: ko‘p yo‘q esa, ozga alvido.

Endi tomiridan uzilgan menman,
O‘rgangan oshyoni buzilgan menman,
Endi na sen sensan, na-da, men menman,
Endi biz bizmasmiz, bizga alvido.

Baxtiyor, yarangdan oqqan qon har on
Seni kechmishingga bog‘lar har zamon;
Zulmat yuragingni yog‘dulantirgan,
Yo‘lingga sham tutgan ko‘zga alvido.

Tohir QAHHOR tarjimasi.

* * *

Gulman, sansiz hazon o‘lsam,
Shanman, man bag‘ri qon o‘lsam,
Man ham bir kun to‘fon o‘lsam,
Hazin saslim, xush nafaslim,
Yetishmasmi xazon faslim?!

O‘tman, o‘chsam, kulga do‘nsam,
Olovman porillab so‘nsam,
Oson suzsam, qiyin cho‘ksam,
Hazin saslim, xush nafaslim,
Kelmasmikin xazon faslim.

Bor eding, bor bo‘ldim men ham,
Chechaklarning ishqi sanda.
Muhabbatim, quyosh nurim,
So‘zi bol, qalbi billurim,
Hazin saslim, xush nafaslim,
Kelsang, kelar bahor faslim!

* * *

Sen – qahqaha,
Men – ko‘z yoshi.
Qaydasan ko‘nglim sirdoshi?
To‘fonlidir umr qishi.
Sen kul!
Men kulishni bilmam!



Marvarid DILBOZIY

Shodlik ichida bu olam,
Nadir ko‘nglimdagi bu g‘am?
Naylayinki, men baxti kam,
Dard ne, bilmam hamon.

G‘am egdi mag‘rur boshimni,
Topmadim sirdoshimni,
Selga aylangan yoshimni,
O‘zimdan ayro bilmasman.

Sahroda o‘sgan bir gulman,
Fasli quruq o‘tgan yilman,
Istaydurman sansiz o‘lsam,
Naylayin; o‘la bilmasman...

Dilbar HAYDAROVA tarjimasi



ANAR

BIR STAKAN SUV



HIKOYA

Bir kuni qishloqqa shahardan katta odamlar keldi. Hammani to‘plab, ajoyib majlis o‘tkazdi. Paxtakor so‘zga chiqdi. Cho‘pon gapirdi. O‘rmonchi so‘z oldi. Mexanizator va zootexnik ham qatordan qolmadi.

Shahardan kelgan hurmatli o‘rtoqlardan biri dedi:

– Negadir suvchilardan vakil ko‘rinmaydi. Nahotki shunday katta qishloqda bironta ham ilg‘or suvchi topilmasa?

Nega endi ilg‘or suvchi topilmas ekan? Albatta, topiladi. Hozir olib kelamiz. Darhol ilg‘or suvchini qidirib ketishdi.

Qurib qolgan ariqdagi suv tegirmoniga chopib borishdi. Xayriyat, suvchi Quruq Ja’far shu yerda ekan. Uni oyog‘ini yerga tekkizmay majlisga olib kelishdi. Katta odamlar unga:

– Seni tabriklaymiz, o‘rtoq Quruq Ja’far! Yaxshiyam, sen bor ekansan. Kelganingdan behad shodmiz. Bu yerdagilarning hammasi gapirishdi. Balki sen ham biron nima dersan, – deyishdi.

Quruq Ja’farni minbarga da’vat etishdi. Suvchi sho‘rlik dovdirab qoldi: Nima deydi? Nima haqda gapiradi? U shunday hayajonlanib ketdiki, oqibatda minbarda turgan stakanni turtib yubordi, stakan chil-parchin bo‘ldi, suvi chor tarafga sachradi.

Suvchi o‘zini batamom yo‘qotib qo‘ydi. Zo‘rma-zo‘raki, titrab-qaltirab, dedi:

– Hechqisi yo‘q, suv – yaxshilik alomati...

U shunday dedi-yu, minbardan tushib, zalning bir burchagiga borib o‘tirdi.

Majlis so‘ngida shahardan kelgan hurmatli kishilardan biri ajoyib nutq irod qildi. U jumladan bunday dedi:

– Men bir narsani qat’iy ta’kidlamoqchi-man. Yangi yerlarni o‘zlashtirishga alohida e’tibor bermoq kerak. Ilg‘or suvchilarning tajribasini chuqur o‘rganish va keng yoyish zarur. Hozirgina bu yerda so‘zga chiqqan suvchi Quruq Ja’far – u butun mamlakatga dong taratgan, sizning qishlog‘ingizning faxri – juda zo‘r gapni aytdi. Suv – bu yaxshilik alomati, dedi u. Men bu fikrga yuz foiz qo‘shilaman. Suvning qadrini bilasizlarmi! Suvchi Ja’farning qadrini bilasizlarmi?! Suv – kelajakdagi yutuqlarimizning garovidir! Suv – qop-qora tunda porlab turgan yulduz!

Suvchi Ja’farning yulduzi ham ana shunday porloq. Uning tajribasi bilan o‘rtoqlashish uchun O‘zbekistonga jo‘na-tishdi. Uning shavkatli mehnati haqida shoir T.Tushkunlikov she’r yozdi, unga kompozitor K.Ko‘tarinkilov ajoyib muzika bastaladiki, bu qo‘shiqni B.Bulbulov miriqib kuylamoqda.

Bir kuni suvchi Quruq Ja’farni shaharga taklif etishdi. Samur-Divichinskiy kanalining yigirma ikki yilligiga bag‘ishlangan katta miting bo‘ldi. Kutilmaganda raislik qiluvchi suvchi Quruq Ja’farga so‘z berib qoldi. Ja’far nima deyishini, nima haqda gapirishini bilmay, dovdirab qoldi. Ammo uzoq o‘ylab o‘tirishga vaqt ham, imkon ham yo‘q, hamma uning og‘ziga termulib o‘tirardi. Ja’far atrofga – miting ishtirokchilariga bir sira ko‘z yugurtirib chiqdi. Shu mahal minbarning bir chekkasida bir stakan suv turganini ko‘rdi. Ja’far yo‘talib oldi-da, boshladi:

– Mana, misol uchun, shu stakanni olaylik. Ota-bobolarimiz suv idishga quyilganda uni ichsa bo‘ladi, deb juda to‘g‘ri aytishgan, demak, men hozir mana shu suvni olib ichishim mumkin. Biroq shu suv stakanda, aytaylik, uch kun turib qolsa, uni ichib bo‘larmidi? Yo‘q, albatta! Nega? Chunki suv bir joyda uzoq turib qolsa ayniydi. Shuning uchun kanallar qazishadi, toki suv bir joyda to‘xtab qolmay, doimo oqib tursin. Yashasin, mana shu kanalni qazigan hurmatli mehnatkashlar!

Uning nutqini davomli qarsaklar bilan olqishlashdi.

Suvchi Ja’farni o‘sha yerda qora “Volga”ga o‘tqazishdiz-yu, to‘g‘ri boshqa joyga – eski hammomga yangi toslar keltirilishiga bag‘ish-langan mitingga olib ketishdi. U mashinadan tushishi hamono minbarga boshladilar. Suvchi gapni ila ketdi:

– Misol uchun bir stakan suvni olaylik... Nikolay zamonida boylar ana shu suv uchun xalqni qanchalar qiynagan... Aytish mumkinki, xalq daryo bo‘yida-yu, ammo suvga zor edi. To‘g‘ri, ba’zan ular ayrim joylarda hammomlar qurishgan, unga odamlarni jalb etishni mo‘ljallashgan. Nima bilan? Hammomdagi suv bilanmi? Qayoqda deysiz, gapiraman desa, bu borada gap ko‘p, odamning kallasiga aqlli fikrlar hammomda keladi, degan naql bor-ku, axir. Bugungi shonli kunda, ya’ni eski hammomga yangi toslar tushiriladigan tantanada men sizlarni chin qalbimdan tabriklayman.

Mitingdan so‘ng suvchi Ja’fardan televideniye orqali so‘zlashini iltimos qilishdi.

Quruq Ja’far dedi:

– Yaxshi, ma’qul. Men roziman. Faqat bir shartim bor: mening oldimga bir stakanda suv qo‘yinglar.

Bir soatdan so‘ng Quruq Ja’far zangori ekran orqali nutqini boshladi:

– Hurmatli teletomoshabinlar! Misol uchun mana shu bir stakan suvni olaylik...

Shundan keyin suvchi Ja’far bir hafta davomida turli yig‘ilish va mitinglarda nutq so‘zladi.

Pionerlar bilan uchrashuvda bunday dedi:

– Aziz bolalar! Xalqning maqolini sira esdan chiqarmanglar – yo‘l boshlash kattadan, suv ichish kichikdan.

Zootexniklar kengashida so‘zga chiqib aytdiki, suvga havas qilgan — chanqog‘ini qondiradi, otga havas qilgan — oyog‘ini toldiradi.

Astronomlarning ilmiy konferensiyasida u ajoyib ilmiy farazni ilgari surdi: suv – rangsiz, oy esa dumaloq. Badiiy tarjima problemalariga bag‘ishlangan konferensiyada ham ishtirok etdi. Bu mo‘tabar anjumanda suvchi Ja’far shunday original fikr aytdiki, hamma yoqasini ushlab qoldi: “Quduq tabiiy ravishda o‘zi suv berishi kerak, avval paqirda suv quyib, keyin suv olinadigan quduqlarning bahridan o‘tish zarur”.

Bir jurnalistga bergan intervyusida ijobiy qahramonga nisbatan o‘z munosabatini tubandagiga bayon qildi: “Tinch oqar daryoning tagi shiddatli bo‘ladi”.

Bir kuni juda katta majlis ochildi. Darhol Quruq Ja’farga so‘z berishdi. Endi Quruq Ja’far oldingi Ja’far emasdi, ya’ni tortinib, gapini yo‘qotib qizarib-bo‘zarib o‘tirmadi. Minbarga dadil, shahdam qadamlar bilan chiqib bordi. Ikki qo‘li bilan minbarning ikki tomonidan ushladi, salobat bilan zalga razm soldi. Tomog‘ini bir qoqib oldi-da, vazminlik ila boshladi:

– Misol uchun, mana shu bir stakan... – Ja’far birdan tutilib qoldi. Tili kalimaga kelmay dovdiradi. Yuzlari sholg‘om bo‘ldi. Gap shunda ediki, unga nisbatan alohida hurmatning ifodasi sifatida minbarning bir chekkasiga odatdagidek suv emas, bir stakan choy qo‘yilgandi. Suvchi Ja’far bu qiyin holdan chiqib ketish uchun o‘zicha dedi: – Suv... choy... arpachoy... ko‘kchoy... qora choy... Umuman aytganda... men suvga cho‘kib ketdim...

Anchadan beri suvchi Ja’farga hasad aralash havas qilib yurgan choyxonachi Jamil o‘n uchinchi qatorda o‘tirib, raqibining ahvolini diqqat bilan kuzatardi. Oxiri u chiday olmay, o‘tirgan joyidan baqirdi:

– Ha, aziz do‘stim, nima bo‘ldi? Daryoga faqat qalpog‘ing oqdimi yoki boshing ham oqib ketdimi?

Shu kundan e’tiboran suvchi Quruq Ja’farning porlagan yulduzi so‘na boshladi. Choyxonachi Jamilning yulduzi esa kundan-kunga ravshanroq bo‘lib boraverdi.

Mamatqul HAZRATQULOV tarjimasi.

YURT QAYG‘USI



Munavvarqori
ABDURASHIDXONOV

TIYOTR – ULUG‘LAR MAKTABI

(1914 -yil 27-fevralda Toshkandda “Kolizey” teatri binosida “Turon” truppasining rasmiy ochilishi munosibatila so‘zlangan nutq)

Jamoat!

Siz hurmatlularga tiyotr xususida bir necha so‘z aytmakka jasorat qilib, qarshularingizga chiqdim. Bu xususda manim gustohona harakatimni afv etmaganingizni ojizona rijo qilurman.

Bizni Toshkand shahrida bir necha martaba milliy tiyotrlar o‘ynalgan bo‘lsa ham, xolis Turkiston tilida hanuz bir tiyotr o‘ynalmag‘onlig‘i barchamizga ma’lumdir. Shul sababli ba’zi kishilarimiz tiyotrg‘a, ehtimolki, o‘yinbozliq yoxud masxarabozliq ko‘zlari ila boqurlar. Holbuki, tiyotrning asl ma’nosi ibratxona yoki ulug‘lar maktabi, degan so‘zdur. Tiyotr sahnasi har tarafi oynaband qiling‘on bir uyg‘a o‘xshaydurki, unga har kim kirsa, o‘zining husn va qabihini, ayb va nuqsonini ko‘rub ibrat olur. Va bu sahnada ko‘ziga yomon ko‘rungan past odatlardin va buzuq axloqlardin uzr qilmoqg‘a harakat qilur. Binoanalayh tiyotrni buzuq axloq kasallarining eng yoqimli davosiga o‘xshatgan kishi yolg‘onchi bo‘lmasa kerak, deb o‘ylayman.

Tiyotr sahnasiga chiqib, yuziga un surtib, bir masxaraboz shakliga kirgon zotlar go‘yoki tabibi hoziq misolindadurlar. Bunlar achchiq romanlarni shirin davolari ila xalqg‘a yedirurlar va achchiq nasihatlarni suchuk so‘zlari ila xalqg‘a eshitdururlar. Biz shu zotlarga va tiyotrlarga qanday ko‘z ila boqmog‘imiz kerak? Muni o‘rganmak uchun biz o‘zimizdan boshqa mutaraqqiy mamlakatlarga boqaylik. Misli ustimizga hokim bo‘lub turg‘on ruslarga, turklarga, nemislarga, fransuzlarga, yahudiylarga va boshqalarga, ko‘b uzoq ketmayluk, eng yaqin qo‘shnilarimiz bo‘lg‘on Qofqoz musulmonlarig‘a. Bundan o‘ttiz yil muqaddam Qofqoz musulmonlaridin eng avval chiqib tiyotr kitoblari yozg‘an va yuziga un surtib tiyotr sahnasiga chiqg‘on, adibi shahid Mirza Fathali Oxundov janoblarig‘a xalq qanday ko‘z ila qaradi? Marhum Oxundov xalqning nuqsonini ko‘rsatg‘on, millat taraqqiysig‘a va mamlakat obodlig‘ig‘a xizmat qilgon, ismi har yerda haqorat ila zikr qilinurdi va o‘zidan har kim nafrat qilurdi. Lekin o‘ttiz yil o‘tgandin so‘ng marhum Oxundov janoblarining chekkan mashaqqatlari va tortgon zahmatlarini millat o‘ylab, taqdir qilub, oning xotirasi va ruhining shodligi uchun ulug‘ bir yubiley, ya’ni duo majlisi yasadilarki, hozirg‘a qadar bunday ulug‘ majlis musulmonlardin hech bir kishi uchun yasalg‘oni yo‘qdur. Marhum Oxundov tutgan yo‘lning ulug‘ foydalari hozirda ko‘rinmakda boshladi. Qofqoziyaning har bir yerida jamiyati xayriyalar ochilub, alarning tiyotru shu’balari tashkil topdi, bularning eng mashhurlari Bokuda «Najot jamiyati»durki, bu jamiyat tiyotr vositasila Qofqoz xalqining axloqini xiyla isloh qildi, g‘aflatdin uyg‘ontirdi, taraqqiy va maorifga havaslarin ortdirdi. Hozirda tiyotr vositasila har yil minglarcha aqcha jam’ qilur. Yuzlarcha musulmon faqir va ojizlarga yordam berur. Qo‘lidan kelguncha millatining nomus va obro‘sini hifz qilur va shaharning atrofida bo‘lg‘on qishloqlarda o‘ttuzg‘a yaqin maktablar ochub, islom bolalarini tarbiya va ta’lim qilur. Yuzlarcha millat bolalarini tarbiya qilub, o‘qitub, haqiqiy millat va vatan xodimlari etib maydong‘a chiqarur.

Modomiki, bizim eng yaqin qo‘shnilarimiz va vatandoshlarimiz va dindoshlarimiz bo‘lg‘on totorlar va Qofqoz musulmonlari bu tariqa taraqqiy va tamaddunga qadam qo‘ydilar. Va yolg‘iz tiyotr vositasila o‘z millat va vatanlarina buncha xizmatlar ko‘rsatdilar. Biz, turkistonliklar na uchun onlardin ibrat olmaymiz? Na uchun o‘z tilimizda tiyotrlar yasab, oramizda bo‘lg‘on buzuq odatlarni yo‘q qilmoqg‘a harakat qilmaymiz? Na uchun Turkistonda birgina bo‘lg‘on jamiyatimizni va faqirlikdin inqirozga yuz tutgan maktab va maorifimizni obodlig‘iga sa’y va ko‘shish qilmaymiz?

Bizim Turkiston mamlakati tufrog‘, suv va havo jihatidin eng boy mamlakatlardin bo‘la turub, na uchun o‘zumiz bundan foydalana olmaymiz?

Mana, ketba-ket yetgan bunday savollarga javob bermak uchun nodonliq va olamdin xabarsizlik, demakdin boshqa chora yo‘qdur. Bu nodonliq va dunyodin xabarsizlik balosidan qutulmak uchun eng avval oramizda hukm surgan buzuq odatlarning buzuqlig‘ini bilmak va o‘rganmak kerakdur.


Bas, bizga bu bildurg‘uvchi va o‘rgatuvchi yolg‘iz tiyotr sahnasidur. Soniyan onlarni tark qilmak kerakdurki, oni tark qildiruvchi yana jamiyat va tiyotr vositasila ochilgon maktab va madrasamizdur. Shul sababli himmatli yoshlarimizdan va himmatli boylarimizdan bu tiyotrlarga faqat o‘yun va masxarabozlik ko‘zila boqmasdan, millat va axloq jihatidan eng ibratli bir manzara va ulug‘lar uchun ochilg‘on foydali bir maktab nazari ila boqmoqlarini ojizona arz va istirhom qilurman.

«Turkiston viloyatining gazeti»,
1914 yil, 2 mart

Kimki o‘z insonlik darajasini asl holatidan taraqqiy qildirsa, bu uning insoniylik olamig‘a kirishidir. Hakimlar uni INSON ataganlar.

Abdurauf FITRAT

JARIDA VA MAJALLA



SIDDIQIY-AJZIY

O‘tgan asrlardagi ulamo va shuarolarimiz tarafidan turli lisonlarda va turli shevalarda jild-jild kitoblar, risolalar va devonlar tasnif va tahrir buyurilgan bo‘lsa ham, asri hozir ulamolari orasida hanuz suyub lazzat va muhabbat ila o‘qugan kishi ko‘rilmagan edi. Durust ba’zi birlari o‘qur va mutolaa ham qilurlar. Lekin, o‘qub bo‘lar bo‘lmas uyning toqchasiga tashlarlar. Andin mutaassir bo‘lmak va sohibi kitobning maslaklaridan voqif bo‘lub bahramand bo‘lmak va oning maromincha amal qilmakka u qadar ahamiyat bermas edilar. Ahodisi sharifa va kutubi mutabarrukaning har tarafini diqqat nazari ila boqub dini mubin islom muhofazasi va baqoyi millat maqsadi ila taammuq nazar qilmagan zotlar nihoyatda ozliqlari sababli Turkiston aholisi orasida hadisi sharif va udaboyi mutaqaddim kalomlaridagi ma’nilarni nazarda tutub ibratlanmak kabi maqsudlarga noil bo‘lmaganlar ko‘bdir.

O‘tgan azizlar va salafi solihiynlarning maqsadlari ila zamoni hoziradagi jarida va majallalarning muddao va maslaklari nazari umumiy tarafidan haqiqatan birdir. Bularning vazifalari Qur’oni Karim va hadisi sharif mazmuniga muvofiq targ‘ibi ilm va ma’rifat, din va dunyo ma’muriyatini o‘z lison va shevasi ila ochuqdan-ochuq umum anglarliq darajada bayon qilmakdir. Har yerda bo‘lgan voqealarni kishiga ta’sir qiladirgan va tanbeh beradirgan xabarlarni zikr qiladir. Xulosa: har majalla va jarida o‘z sheva va o‘z maslagi ila olam murodiga savq qiluvchi bir xodimdir.

Masalan Qozonda muntashir “Ad-din val-adab” ila Orenburg‘dagi “Sho‘ro” majallasini olayluk. “Ad-din val-adab” ulamoyi kirom qoshlarida shoyistayi marg‘ub va matlub bo‘lub, oyati Qur’oniya va ahodisi sharifani tafsir va tarjimasi ila yana bir necha zaruriyati diniyadan bohis bir majallayi mufidadir. “Sho‘ro” esa ismiga muvofiq bir ruh g‘azosidek ma’nolarni hoviydir. Afsuski, bizim Turkistonimiz aholisidan bir necha adaddan ziyodalari buningdek majallalardan istifoda qilmaydirlar. Ajabo! Aholimiz jarida va majallalarni o‘qumoqdan muncha hazar qilur ekanlar, gunohdir deb shubhalari bormi? Bayt:

Majalla-maxzani irfon, jarida-maktabi fazl

Bu ikki naqd gironmoyadan-da, biz mahrum.

5-numru “Sadoyi Turkiston”da ikki-uch asarli xabarlarni ko‘zdan kechurdim. Namanganda janob Is’hoqjon afandining xatna bobida urf-odatdan chiqmoqg‘a qilg‘on jasoratlari ham masjid maktab binosiga qilgan iqdomlari, qozixona jome’ sharifida janob To‘raxon afandining jumaning farzidan ilgari qilgan va’zlari va Mirzo Hamdamboyning madrasa yonida maktab bino qilmoq xabarlari…

Ko‘b muddatdan beri qo‘llarimizdagi kutubi muqaddasaga amal qilub ulamoyi kiromning muhim va’zlarini eshitgan bo‘lsak edi. Ushbu kundag‘i razolatlarga giriftor bo‘lmag‘on bo‘lur eduk. Manim bu so‘zlarni yozmakdan maqsudim: jaridadan xabardor kishilar ko‘b mutaassir bo‘linur ekanlar. Shul sababli oni taklifi hidoyat uchun bir xodim ekanligiga e’tiqod qilub ko‘broq rag‘bat qilmog‘larini munosib ko‘rurman.

“Sadoyi Turkiston” 1914-yil 21-son.

Nashrga tayyorlovchi:
NODIRA EGAMQULOVA



MASLAKI TARJIMON

Zamonamizda turli maslak va fikrlar paydo bo‘ldi.

“Tarjimon” maslagi aksar xalqqa ma’lum bo‘lsa-da, bilmagan ham balki bordir.

“Tarjimon” – hech bir millatning, hech bir sinfning, boy yo faqirning haqini inkor etmayajakdir.

“Tarjimon” – yigirma besh sanadan beri millatchi(millatparvar)dir…

“Tarjimon” – millatni har narsadan qimmatli va muqaddas tutajakdir… Rohat va saodati millat uchun izlanajakdir.

“Tarjimon” – har turli ish ahvol va ixtilofga “haqqoniyat” va “mumkinat” jihatindan boqajakdir.

“Tarjimon” – tavhidi lison (til birligi), tavhidi afkor (fikrlar birligi) va maorifi milliya masalalarinda doimiy g‘ayratda bo‘lajakdir.

“Tarjimon” – har na so‘ylar va yozar esa, bu kunda millatning anglamayajag‘i, idrok va qabul edajagi suratda arz va bayon edajakdir.

“Tarjimon” gazetasi,
1906, №62



GO‘ZAL YOZG‘ICHLAR

UMID GULI BIZIM UCHUN



Abdurauf FITRAT

Yurt qayg‘usi

Onam! Seni qutqarmoq uchun jonmi kerakdir?
Nomusmi, vijdon bila imonmi kerakdir?
Temur bila Chingiz qoni toshdi tomrimizdan,
Aytgil! Seni qutqarmoq uchun qonmi kerakdir?
Yov suqgali kelgach qilichini yuragingga,
Tush oldiga, ol ko‘ksumi – qalqonmi kerakdir?
Boq, boq, mana turk tengizi toshqun qila qoldi,
Turon yovini quvg‘ali to‘fonmi kerakdir?
Turon, yigiting, barchaga boq, qalqdi oyoqg‘a,
Yurtda qorovul qo‘yg‘ali arslonmi kerakdir?

O‘gut

Og‘ir yigit, sening go‘zal, nurli ko‘zungda
Bu millatning saodatin, baxtin o‘qudim.
O‘ylashingda, turishingda hamda o‘zungda
Bu yurt uchun qutulishning borlig‘in ko‘rdim.
Turma – yugur, tinma – tirish, bukilma – yuksal,
Hurkma – kirish, qo‘rqma – yopish, yo‘rilma – qo‘zg‘al.
Yel yo‘lini to‘sib turgan eski bulutlarni
Yondirib qo‘y, yirtib tashla, barchasin yo‘q et.
Qilolmasang shu ishlarni,
Sening uchun xo‘rlikdir bu...
Yiqil, yo‘qol, ket!

Behbudiyning sag‘anasin izladim

Cho‘kmishdi yer uzra olam to‘sug‘i,
O‘ksuzlik boyqushi qanot qoqardi.
Botuvda qizarib turg‘an bulutdan
Ezilg‘an ko‘nglima motam yog‘ardi.
Haqsizliq shahrining qon hidli yeli
Armonim gulidan bir yaproq uzub,
Bahorsiz cho‘llarga sovurib qo‘ydi.
Ul nozli yaprog‘im so‘lib, sarg‘ayib,
Yo‘qsul qolg‘anlarday har yon yugurdi.
Zolimlar, mazlumlar, zulumlarning-da,
Qayg‘ular, alamlar, o‘lumlarning-da,
Bariga uchradi, barchasin ko‘rdi,
O‘z yo‘qotqonin izladi, so‘rdi.
Bir darak topmag‘ach, birdan bir tikildi.
Bor kuchin to‘pladi.
Zolimning taxtini titratgan bir tovush
Qichqirdi:
– Otamning qabrini qay yerga yoshurding?!
Bot so‘yla!...
Kirli toj ko‘b qo‘rqdi botur tovshidan,
Seskanib, titrab... yoshrundi
Bir javob bermasdan.

Shoir

Bu kun yig‘lab o‘tirmishdim, sen kelding,
Bir shoirning bir “so‘zi”ni so‘zlading,
Men u so‘zning ruhingdagi izlarin
Sening go‘zal ko‘zlaringda o‘qidim.
O‘qiduqcha, u izdan
O‘zim uchun ko‘b umidlar to‘qidim.
– Umidsizcha yashay olmam, netayin.
Emish... Shoir sevgilisiga yozg‘an
Bir yozuvda qayg‘ularini to‘kmish,
So‘zlarining eng oxirida ondan
Ruhi uchun bir oz ko‘mak istamish.

Bilasanmi? Shoir ishqning eng nozli,
Erka, injiq yog‘dusidir, turolmas
Ma’shuqidan ko‘rmagancha kulushli,
Marhamatli, chin sezguli bir ko‘mak,
Mana shudir uning uchun bor tilak.
Shoir
Tabiatdan sirli, teran ma’nolar,
Tiriklik-chun, ochiq, to‘g‘ri, chin yo‘llar
Izlar – topar, o‘zi uchun saqlamas.
Unlarni
Yoz gulining yaprog‘idan to‘qilgan
“So‘z”lar ilan o‘rab bizga topshirar.
Shoir
Ishq bog‘ining tentak, singirli, yongan,
Bulbulidir. Bashariyat dunyosin
Kichik, nozli qanoti uzra qo‘yar,
Ko‘klar sari yuksaltkali talpinar.
Mana shuning o‘ksuz, yo‘qsul ko‘ngluni
Ko‘tarmak-chun, go‘zallarga tegishdir.
Kim ozg‘ina qarag‘aylar, kulgaylar
Ingrab turgan jonini
Qo‘llag‘aylar, bir oz ko‘mak etkaylar.

SHE’RIYAT

Vatan – yuraklarga berilgan kenglik



Abdulla SHER,
O‘zbekiston xalq shoiri

Cho‘lpon

Bo‘lolmadi “oqilu dono”,
O‘tga otdi ayamay o‘zni.
Shon-shuhratdan ko‘rdi u avlo
“Ozodlik!” deb atalgan so‘zni.

Sindirishgach gugurt cho‘pini,
Umri bilan yoqdi gulxanni
Va hilolga ilib do‘ppini,
Chiqib ketdi yulduz tergani.

* * *

Fayzulla Xo‘jayev xotirasiga

Tarixning qorong‘u yo‘laklaridan
Jilmayib boradi yop-yorug‘ inson,
Shafaqqa o‘xshagan kuraklaridan
Qotgan qon shaklida boqadi zamon.
Qo‘rqmagan ko‘krakning kuraklari bu,
Xiyonat pichog‘in jim kutib oldi.
Buyuk Turkistonning ertaklari bu,
Qotgan qon shaklida abadiy qoldi!

* * *

Vatan – yuraklarga berilgan kenglik.
Qichqirib, chiranib,
ko‘krakka mushtlab,
Yalang‘och shovqinga ko‘mmaylik
nomini.

Vatan – yuraklarga berilgan kenglik.
Shivirlab kuylaylik Vatan haqida
Navbahor kuni
Po‘stlog‘idan kechgan kurtakka
o‘xshab.

Shivirlab so‘ylaylik Vatan haqida
Uzoq qish tuni
Oq tongni uyg‘otgan ertakka o‘xshab.
Shivirlab o‘ylaylik Vatan haqida
Tilsim deb uni,
Farhodga aylangan go‘dakka o‘xshab.

Vatan – yuraklarga berilgan kenglik...

Goya

Sen kelmasdan dunyo oq edi,
Oppoq edi barcha narsalar.
Ko‘nglim tog‘u vaqtim chog‘ edi:
Labda – kulgu, qo‘lda – qarsaklar.

Sen kelding-u, bari qolib jim,
Olachalpoq tushga aylandi.
Butun olam jo bo‘lgan kaftim
Qil ham sig‘mas mushtga aylandi.
So‘ng men sodda, yumshoq paytlarni
Ko‘mib keldim olis tomonga.
Olib chiqdim qaysar baytlarni
Zamon degan ko‘hna maydonga.

Oqqush edim, rom etdi qoya –
Men burgutga aylanib qoldim.
Tog‘ ekansan, ey yuksak g‘oya,
Yuksaklarga boylanib qoldim.

* * *

Ustoz Abdulla Qodiriy va undan avval o‘tgan barcha buyuk Abdullohlarga

Abdullohlar juda ko‘p o‘tgan
Bu dunyoda men ham Abdulloh.
Ular menga ishonib, kutgan,
Men ulardan qarzdorman, Alloh!
Jangnomadir ular hayoti,
Matonatga ism har biri.
Botinida qolgan faryodi
Bu olamda sirlarning siri.
Ular tutdi buyuk ko‘ksini
Yurtu iymon himoyasiga.
Hatto tarix boqar o‘ksinib
Kechmishlarning hikoyasiga.

Ta’qiblaru surgunu zindon...
Erkka tashna tillar cho‘g‘landi.
Hayhot, ular tug‘ilgan zamon
Qatl o‘qlari zimdan o‘qlandi.

Jaholatga qayraldi tig‘lar,
Hukm ahlining farmoni bajo:
So‘z tovushdan ayrilib yig‘lar,
Ho‘ngrab yig‘lar har bitta hijo.

Toptab o‘tdi nasru nazmni
Goho etik, gohida tuyoq,
Yodga chizar ular rasmini
Fojiadan qorilgan bo‘yoq.

Yillar oshib, asrlar oshib,
Tikiladi menga ul ko‘zlar
Va chiqar-u qalbimdan toshib,
Yorib tashlar qalamni so‘zlar.

O‘rtanadi ichu tashlarim,
Yig‘lay boshlar she’rga tomgan yosh...
Siz tinch yoting, men, adashlarim,
Siz uchun ham ko‘targanman bosh!

Bedorlik

Yangilanar yil har yil,
Biz esa – eski.
Qarimaydi garchand til,
So‘z esa – eski.

Eslatadi qirovni
Sochlardagi oq.
Izlasak bir-birovni,
Xotira – chiroq.

Oh, u kunlar, u kunlar
So‘zga ko‘chmaydi,
Gulxan bo‘lgan uchqunlar
Ko‘kka uchmaydi.

Endi yurakmas, ko‘proq
Titraydi qo‘llar.
Tunlari qilar so‘roq
O‘tilgan yo‘llar.

Garchand ko‘zni yumamiz,
Uyqu esa – yo‘q;
Uyqu qochar – quvamiz,
Tovonimiz cho‘g‘.

Biz qo‘shiqlar to‘qidik
Yot ohanglarga;
Ba’zan she’rlar o‘qidik
G‘irt garanglarga.

Hammasidan yumib ko‘z,
Unutay desak,
Dard haqida boshlar so‘z
Bo‘yalgan kesak.

Kesaklar orasida
Tosh bo‘lolmasmiz.
Yana qayta rasida,
Yosh bo‘lolmasmiz.

Bu dunyo o‘zi nima? –
Bilolmadik hech.
Evoh, biz chiqqan kema
Suvga tushdi kech.

Ters qo‘yilgan narvondek
Yopishmay tomga,
G‘urubdagi karvondek
Boramiz shomga.

Gulni kuylaydi olam
Cho‘pdan yasab soz...
Lekin yaxshi gaplar ham
Ko‘p bo‘lgani rost.

Shukrona aytsa bo‘lur,
Shukrona ham – baxt.
Yuzimizga sochar nur
Yorug‘lashgan Vaqt.

Nihoyat nasim kirar
Quvib qayg‘uni,
Kiprikka tutib berar
Qochgan uyquni.

IJTIMOIY TARMOQLARDA

Sizning fikringiz...

Uljamol Xonnayeva:

— Yangi 2024-yilning dastlabki yangiligi – “Jadid” gazetasining nashr etilishi bo‘ldi. “Jadid” barcha yurtdoshlarimizga muborak bo‘lsin!

Otabek Bakirov:

— Qaytadan tashkil etiladimi, yo‘qdan bino bo‘ladimi, muhimi milliy matbuotda yangi nashr paydo bo‘ldi — “Jadid”. Bu nom jarangdor va e’tiborni tortadi. Jadidlar dasturiga qaraydigan bo‘lsak, adabiyot va publitsistika, san’at va madaniyat asosiy o‘rinda turgan. “Jadid” sahifalarida ham bu aniq ko‘rinadi. “Jadid”dan shaxsan mening umidim katta.

Doston Rahmat:

— Gazetalarni kirillda, lotinda bosilibdi deyishdan ko‘ra, ularning dizayni ustida ishlash kerakligi haqidayam gapirishimiz kerakdir. O‘zbekistonda xuddi shunaqa nusxada va shaklda 15 tacha gazeta chiqsa kerak. Agar undan ko‘p bo‘lmasa.

Boshqalarni bilmadim, auditoriyani jalb qilish uchun ham hozirgi kunda gazeta dizayni juda muhim. Shu bilan birga, dizayner ham o‘z ustida doimiy ishlab, izlanishda bo‘lgani yaxshi.

Shuhrat Hayitov:

— “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi o‘z davrida turlicha nomlangan, ya’ni inqilobiy o‘zgarishlar bu gazetada ko‘p bo‘lgan. Eng muhimi, u bugun yangi nom bilan 700-800 nusxada emas, balki yigirma mingga yaqin adadda chop etilayotir.

Asosiy masala gazetaning qo‘lma-qo‘l o‘qilishida, o‘z o‘quvchilarini topishdadir...

Nazokat Murodova:

— Yangi gazetaning shov-shuvini eshitib o‘qigim keldi. Lekin topolmadim. Tezroq elektron versiyasini yo‘lga qo‘yinglar. Telefonda bo‘lsayam o‘qib turaylik.

Sherzodbek Dehqonov:

— Gazetalar “davri” yana qachonlardir qaytishi kerak. “Jadid”chilar jamoasiga ijodiy barkamollik tilayman. Iloji bo‘lsa, nashr soni ko‘payib, har bir xonadonga kirib borsa... Elektron shaklini yoritish masalasini ham o‘ylab ko‘rish kerakmikan. Faqat obuna bilan cheklansa, gazeta yuksalishi qiyin hozirgi vaqtda. Ya’ni ijtimoiy tarmoqlarda faollashish maydonini yaratish kerak.

MULOHAZA

ERTANING G‘AMI...

...Bu qizchani deyarli har kuni “Navoiy – 30” nomi bilan shuhrat topgan bino oldida ko‘raman. Qoramag‘izdan kelgan, yirtiq kavushini epchillik bilan sudrab, bir qo‘li bilan yo‘lovchining etagidan tutgancha, ikkinchi qo‘li bilan yuziga fotiha tortadi. Jimgina turaveradi. Faqat... ko‘zlari gapiradi. Qop-qora bu ko‘zlarda go‘yoki siyoh bilan yo‘g‘on-yo‘g‘on harflarda “Sadaqa bering!” yozilgandek...

Navoiy ko‘chasidan tasodifiy yo‘lovchi kam o‘tadi. Kunda-shunda nashriyot va tahririyatlarga keluvchilarning aksariyati qizchani taniydi. Kimdir hazil-huzul qilib, bir-ikki so‘m bersa, ayrimlari o‘zini ko‘rmaganga olib, o‘tib ketadi.

– Pulni nima qilasan? – gapga soldim bir kuni qizchani.

– Non olaman.

– Noning bor-ku? – qo‘lidagi non bo‘lagiga ishora qildim.

– Ertaga nima yeyman? – ajablanib so‘z qotdi qizcha.

G‘alati ahvolga tushdim. Qizchaga “nonpuli” berib, ishxonaga keldim. Uning savoli tinmay miyamda aylanardi: “Ertaga nima yeyman?”...

O‘sha voqeaga qadar Xudo meni tilanchi qilib yaratmaganiga shukrona keltirib, sadaqa qilardim. Bundoq o‘ylab qarasam, men ham, mendan ustun bo‘lganlarning ko‘pchiligi ham shu qizchadan deyarli farqimiz yo‘q ekan. Biz uchun ham “Ertaga nima yeyman?” degan savol hayotimiz ma’nosiga aylanib qolgandek...

Qorin g‘ami jamiyat taraqqiyotiga eng katta ta’sir ko‘rsatadigan omil bo‘lib ko‘rinadi gohida. Bir vaqtlar Karl Marks aytganidek, iqtisodiy farovonlik jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlaydi. Shu gap rost bo‘lsa, faqat boylari ko‘p bo‘lgan jamiyat madaniyat, ma’naviyat, axloq haqida qayg‘uradi. Yo‘qsillar jamiyatida adabiyot ham bo‘lmaydi, san’at ham. Madaniyat ham bo‘lmaydi, ma’naviyat ham... Unda nega kommunistlar boylarga qarshi kurashishdi? Tushunmayman. Mayli, gap bu haqda emas. Gap – boylik va ma’naviyat munosabatlari haqida.

Tarixga murojaat qilamiz. Firdavsiy “Shohnoma”siga yetarli haq olmagani uchun Sulton Mahmud G‘aznaviyni hajv qildi. Nizomiy Ganjaviyning “Xamsa”siga besh nafar podshoh homiylik qilgan. Alisher Navoiyning so‘z sohibqironi bo‘lishiga kim sababchi bo‘lganligini Kishvariy degan bir shoir shunday ifodalagan ekan:

Kishvariy she’ri Navoiy she’ridin aksik emas,
Baxtiga dushsaydi bir Sulton Husayni Boyqaro.
Biz Mustaqillikning dastlabki bosqichida ham



shu yo‘sinni mahkam ushladik – oldin iqtisod! Keyin siyosat! Ayniqsa, tadbirkorlikka keng yo‘l! Ma’naviyat-chi? Oldin qorinni to‘yg‘azaylik, keyin ma’naviyat haqida o‘ylaymiz. Ma’naviyat haqida o‘ylaydigan bo‘lsak, ertaga nima yeymiz?..

Kimdir xorijga chiqib ketdi, kimdir tirikchilik bozoriga. Kimdir poraxo‘rlikni boshladi, kimdir vositachi bo‘ldi. Hamma to‘rt tomonga o‘zini urib, ro‘zg‘orini obod qilishga kirishdi. Qornimiz nonga to‘ydi, biroq ko‘zimiz ochligicha qoldi. “Ertaga nima yeymiz?” savolidan qutulolmadik.

Ma’naviyat esa, bozorga qaram bo‘lib qoldi. Bozorga solindi ma’naviyat. Musaffo osmon haqidagi ma’ruzalar maktabda “ikkichi” bo‘lgan uddaburonlarning ajnabiy moshinasining changida qolib ketdi. Odamni odam o‘rnida ko‘rmaydiganlarning dong‘i chiqdi, ma’rakalarning to‘ri shularniki bo‘ldi. Mezonlar qoringa qarab belgilandi...

Islohotlar boshlandi. Katta islohotlar, umidbaxsh islohotlar. Oyliklar bir necha baravar ko‘tarildi, uy-joy sotib olishga imkoniyatlar yaratildi. Ammo poraxo‘rlik illatidan butkul xalos bo‘lmayapmiz. Kamida o‘n million so‘m oylik oladigan ayrim amaldorlar muhtoj bir insonning oxirgi 100 so‘mini yulishdan hazar qilmaydi. Olaveradi. Tilanchi qizchaga o‘xshab, “Ertaga nima yeyman?” deb olaveradi. Berganning betiga qaramay olaveradi...

Bizda boylar qatlami hali to‘liq shakllanmadi. Ismiga “boy”ni qo‘shib chaqirtiradiganlarning ko‘pi hali boylik nimaligini bilmaydi. Haqiqiy boy qullikka ko‘nmaydi. Nafsga qul bo‘lmaydi...

Nafsni itga o‘xshatishgan mutafakkir bobolarimiz. Itning bo‘ridan farqi nimada? Bo‘ri sassiq go‘shtga qaramaydi. Itning oldiga toza go‘sht bilan hidlangan go‘shtni otsangiz, badbo‘y go‘shtga yopishadi. Nafs ham xuddi shunday – halol luqmadan ko‘ra, harom porani ko‘proq istaydi...

Bugungi farovonlik, qulaylik va erkinlik hattoki Temuriylarning shonli davrida ham bo‘lmagan. Ammo sabr-qanoat, muruvvat, mehr-oqibat, odamiylik bobida ahvolimiz qanday? Nafsimiz quliga aylanib bormayapmizmi...

Shayx Fariduddin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asarida keltirilishicha, Turug‘badiy ismli bir avliyo muridlari bilan taomlanib o‘tirgan ekan. Cho‘l tomondan bir yigit katta ovchi itini yetaklab kelibdi. Keksa Turug‘badiy mehmonni izzat-hurmat bilan davraning to‘riga o‘tqazibdi. Mehmon hech narsa yemas, so‘z qotmas har zamon yoniga cho‘kkalagan itiga bir burda non berib qo‘yarkan.

Mehmonni kuzatganidan so‘ng, muridlar shayxga e’tiroz bildirishibdi:

– Dasturxon to‘riga iti bilan chiqib olgan bu befarosat kim bo‘ldi?

– Bu yigit – Mansur Halloj. Ichidagi nafsini tashqariga chiqarib, it suratida o‘ziga ergashtirib yuribdi. Buning kashfu karomotlari hali ko‘p marotaba olam ahlini hayratga solar, deb javob beribdi Shayx.

Bizning nafs itimiz qayerda?..

Nodira ASADOVA,
jurnalist

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:
Humoyun Akbarov

Navbatchi muharrir:
Shuhrat Azizov

Sahifalovchi:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farqlanishi mumkin.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Adadi – 11840
Buyurtma: G – 140.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
(71) 233-11-07

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti:
21.00
Bosishga topshirildi:
21.35

Sotuvda narxi erkin.